

ISBN: 978-93-96573-27-2

THE PAIN OF GROWTH POEMS

**Poetry by
Sanjar Isomiy**



**Published by
Novateur Publication**
466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030

Sanjar ISOMIY

ULG'AYISH AZOBI

She'rlar

ULG'AYISH AZOBI =====

“Fan bulog’i” nashriyoti
Samarqand – 2021

KBK 85(50'zb)-5

UO'K 821.512.133-1

1 81

Toshbekov, Sanjar

*Ulg'ayish azobi / She'rlar. Sanjar Isomiy.
Samarqand: Fan bulog'i – 2021. 104-bet.*

Sanjar "Shalola" to'garagining faol a'zosi. Uning qalami Samarqand davlat universitetida charxlandi. U yosh qalamkash sifatida dunyoni idrok etish bilan alo-hida ajralib turadi. U mo'jizalarga ishonib qolmasdan, bu yorug' olamdan hayratlanib yashaydi. Shuning uchun ham uning tasavvur chegarasi keng va shaffof.

Sanjarning ayrim she'rlarida qiyomiga yetmagan satrlar, jumlar ham uchrab turadi. Bu kamchiliklar she'riyat ostonasidagi ilk qoqilishlar bo'lib, u asta-sekin bartaraf bo'la boradi.

She'riyat ixlosmandlarini yana bir yosh qalamkash shoir ijodidan bahra olishga chorlab qolamiz.

TAQRIZCHI:

A.Toshpo'latov – SamDU filologiya fakulteti
o'qituvchisi, PhD.

© Sanjar Isomiy, 2021.

© Fan bulog'i, 2021.

DEVONADIRMAN

*Haq yo'liga bir bor sololmay o'zni,
Burolmayin, U tomon ko'zni,
Aytolmayin dildagi so'zni,
Yo'ldan ozgan mastonadirman.*

*Yuraverib sayoq yo'llarda,
Suzib ko'rdim suvsiz ko'llarda,
Daryo istab sahro, cho'llarda,
Ortga boqqan hayronadirman.*

*Aqlim bilmay yigirma oshdim,
Soxta do'stlar oldiga shoshdim,
Sevmay turib sevinchga toshdim,
Endi topolmayin vayronadirman.*

*Qashqirlar yonimda qayradi tishin,
Vaqt o'tdi sezmadim bahor-u
qishin,*

ULG'AYISH AZOBI =====

*Yaqinim bo'g'zimga qadadi nishin,
Ko'nglini ololmay sarsonadirman.*

*Tole bo'lib yozildi qalbimda jafo,
Ko'ngil berganlarim bo'ldi bevafo,
Savol bisyor bo'ldi: qaydadir vafo?
Javob topolmayin hayronadirman.*

*Endi qovog'in uyub qaraydi zamin,
Dilim vayron bo'ldi azobi tayin,
Yengil qilolmadim onamning
g'amin,
Ko'ziga qarolmay devonadirman.*

SEVGILIMGA

*Qalbingni xasta aylabon,
Ketar bo'lsam sendan yiroq.
Qora tunimni charog'on -
Aylaguvchi o'zing biroq.*

*Zahar to'la tiling sanam,
Dil qasriga bo'lar malham.
Bunga guvoh ko'rgan tush ham,
Sayrayotgan bulbullar ham.*

*Mayli deyman bir kam dunyo,
O'zing yodimda bo'lsang bas.
Ko'ksimga bosh qo'ysang goho,
Yuragimda uyg'onar havas.*

*Shoir ko'ngli g'amxonadir,
Ishqni o'ylab devonadir.
Bu qalbinga sendan boshqa,
Yor ko'ngli ham begonadir.*

*Qo'llaringni bergin gulim,
Ishq shahriga ketaylik.
Biz ko'zlagan – o'sha so'lim,
Kunlarga ham yetaylik.*

*Sening nozli firog'ing deb,
Nafasim ham bo'g'ildi.
Ishqing sabab bu dunyoda –
Bitta shoir tug'ildi.*

KORONAVIRUS

*Qaydan keldi, bu ofat, balo,
Ne-ne olim izlarmish davo,
Hayotdan ham yo'qolib ma'no,
Vaqt ham to'xtab qolgandek go'yo.*

*Emish virus nomi - KORONA,
Xitoy unga bo'libdi doya,
Dunyo kezib yurarmish bugun,
Aqlimizdan qilib kinoya.*

*Virus tarqar butun dunyoga,
Hech bir davlat emasdir holi.
Qaramaydi nurga, ziyoga,
Yaratganga ma'lum ahvoli.*

*Virus chiqdi xitoydan nogoh,
Dunyoga der: "bo'linglar ogoh",
Hindlar debon "Krishna panoh",*

Musulmon der "robbimiz Oллоh".

*Oллоh bizga berdi ko'p sinov,
Yurt tuprog'in bosganida yov,
Dushmanlarga bermaymiz ayov –
Bugun esa KORONA dir g'ov.*

*Bir bo'lsak yengamiz ofatni,
Toj kiygan mitti kasofatni.
Bir yoqadan bosh chiqarib,
Oldini ham olamiz talofatni.*

*Xalqim, yetuk farzandlaring,
Bir bo'lsa dardni yanchar.
Xalqqa umid berish uchun
Ushbu she'rni yozdi Sanjar.*

OTA-ONAM

===== Sanjar ISOMIY

*Kimlardir ortimdan g'iybatlar qilsa,
Kun kelib u gaplar bag'rimni tilsa,
Do'stlarim do'st emas dushmanlik qilsa,
Bunga ko'zim yumib yashayveraman,
Ota-onam ko'nglin xushlayveraman.*

*Yaqinim kun kelib yuzini bursa,
Tuhmat toshi bilan yuzimga ursa,
Sevganim boshqaning yonida tursa,
Yo'limda to'xtamay yuraveraman,
Ota-onam ko'nglin xushlayveraman.*

*Mol-dunyo boyligim qo'limdan ketsa,
Atrofda odamlar g'iybatim qilsa,
Do'stlarim yig'lasa, dushmanim kulsa,
Baxt qo'lidan mahkam ushlayveraman
Ota-Onam ko'nglin xushlayveraman.*

XIYONAT IZI

*Seni baxtim deya o'zimdan
kechdim,
Beayov sog'inching qiynaydi tinmay.
Ishq deya har tomchi og'uni ichdim,
Kun kelib o'zgani suyishing bilmay.*

*Biz yurgan yo'llarda turibdi armon,
Endi samoda ham tolmay uchasan.
O'tmishni eslamay bir nafas, bir on,
O'zgani yorim, deb suyib quchasan.*

*Yosh oqar ko'zimdan, uchadi
hushim,
Eslamading hatto boqmading qiyo.
Bir vaqtlari qo'rqib uyg'ongan tushim
Mana endi so'l-u, qarshimda paydo.*

Sergimiz binosi yotibdi muzdek,

*Ko'ksida jarohat, xiyonat izi.
Sarg'ayar yaproqlar go'yoki kuzdek
Bargida ayriliq, yolg'izdir o'zi.*

*Yayov ko'l bo'yini kezarman bedor,
Sog'inch o'z hukmini o'tkazar dilga.
O'tli firog'ingdan qalbim ham
bemor,
Ovutmoqlik hecham kelmaydi tilga.*

*Telbadek holimga achinma gulim,
Jamoling o'zgaga suzildi endi.
Oz qoldi ko'klarga uchadi ruhim,
Qalbdagi baxt qasri buzildi endi.*

*KARANTINDAGI TALABA
SOG'INCHI*

*Ko'ylakni kiy: oq degan,
Qora galstuk taq degan,
Jizzaxcha oshni yegan,
Dekanatni sog'indik.*

*Seminar, goh ma'ruza,
Qumsadi-ku, qalb rosa,
To'lib toshdi sabr kosa,
Fakultetni sog'indik.*

*Yonidagin ko'rmagan,
Qalbni rosa o'rtagan,
Bizni birrov aldagan,
Kursdoshlarni sog'indik.*

*Qochganda bizni kutgan,
Sho'xligimiz unutgan,*

===== Sanjar ISOMIY

*Bolam deb qo'lin tutgan,
Ustozlarni sog'indik.*

SOG'INCH

*Visol onin kutar yurak,
Qalb mushtoqdir firoqingga.
So'zing bilan ajib tilak,
Hadya etgin xumoringga.*

*Eslab mayus jamolingni
Oshufta dil izlar seni.
Yurakkinam otash bo'lar
Sog'ingandan xayolingni.*

*Baxtdan sarmast bo'ldik goho
Goho qayg'u alamlardan.
Yaralangan qalb o'rtanar
Goho qoshi qalamlardan.*

*Asragayman, mehring sezib,
Yomg'ir-la tosh yoqqanda ham.
Qalbimizni ba'zan ezib*

Ishq olovi yoqqanda ham.

*Yodingdami, qo'l ushlashib,
Soy oralab yurganimiz?!
Yodingdami dil xushlashib,
Yomg'irlarda turganimiz?!*

*Ajib damlar o'tdi bir zum,
Guvoh bo'ldi yolg'iz falak.
Sodda dilim seni istar
Seni istab urar yurak.*

*Bir bor qiyo boqishing deb
Umrim zoye ketsa mayli.
Nigohingda qolib ketay,
Men Farxodman – o'zing Layli.*

AYBIM NEDIR OLLOHIM

*Qon yig'radi bu ko'zlar,
Dalda bermas bu so'zlar,
Sevganimmi gunohim?!
Aybim nedir, Ollohim?*

*Begim deya bir bora,
Qiyo boqsaydi zora,
Kimga aytay oh dodim
Aybim nedir, Ollohim?*

*Uning mayus ko'zidan,
Har bir aytgan so'zidan,
Eshitlsa faryodim,
Aybim nedir, Ollohim?*

*Sabringa putur yetsa,
Yaqinim tashlab ketsa,
O'zing bo'lgin panohim
Aybim nedir, Ollohim?*

BIR PAYTLAR

*Hech narsaga qaramay,
Bir birimiz sinamay,
Bor mehrimiz ayamay,
Yurar edik bir paytlar.*

*Hasaddan yorilganlar,
Alamdan qovrilganlar,
Dardlariga dard qo'shib-
Yurar edik bir paytlar.*

*Shirin orzular surib,
Shodlikdan yonib kuyib,
Armonga to'yib-to'yib,
Yurar edik bir paytlar.*

*Endi xiyonat qilib,
O'zgani afzal bilib,
G'ururni ko'kka ilib*

Ketmoqdasan shu paytlar.

*Mayli nima bo'lsa ham,
Ko'zlar namga to'lsa ham,
Hatto bir bor bo'lsa ham,
Eslama o'sha paytlar.*

*Eslama mayli bir bor,
Sevgimiz bo'ldi zor-zor,
Dili yara bir bemor,
Shoir bo'ldi shu paytlar.*

ESLAB QO'Y DILDOR

*Yolg'iz qolganingda sog'insang meni,
Sen deb yonganimni: eslab qo'y bir bor.
Taqdir sinovida qolsang gar ojiz,
Meni kuyganimni eslab qo'y dildor.*

*Baxt sendan yuz bursa bag'ring tig'lama
Axtarib topmasang o'zingga bir yor.
Darding oshib ketsa qalbing tirnama,
Meni yonganimni eslab qo'y dildor.*

*Kun kelib sevganing qilmasa vafo,
Shirin so'z o'rniga bersa ham ozor.
Baxtliman deysan-u, yig'laysan ammo
Seni kutganimni eslab qo'y dildor.*

*Qalbdan quvolmasang qayg'u-dardingni
Yig'lama, dod solib chekmagin ozor.
Yerlarga urmagin tog'dek qadringni*

Baxtdan tonganimni eslab qo'y dildor.

*Yoring xiyonati tillarga tushsa,
Qonli ko'z yoshlaring foydasiz, bekor.
O'zgani ataylab yoningda quchsa
Shoir Isomiyni eslab qo'y dildor.*

*Roziman mayliga eslama bir bor,
Begim qaydasiz deb, izlama bekor,
O'z holingni o'zing aylading abgor,
Senga qaytmasligim bilib qo'y dildor.*

*Marhum do'stim Muhammadga
xotira*

*Yoshgina boshiga ming g'avg'o ilding,
Mushtipar onasin bag'rini tilding,
Erta kelding ajal, sen erta kelding,
Ko'ngling tinchidimi aytgin, ey hayot.*

*Yaqinda o'n sakkiz bahorni oshib,
Yugurib yursaydi ko'pirib, toshib,
Quvonchlar talashib, baxtlar talashib,
Ko'nmding bunga sen, beshavqat hayot.*

*Otasin bergani yetmasmidi jon,
To'ldirib yursaydi uyda bo'lib xon,
Dod dedi, eshitib jumlai jahon,
Ko'ngling tinchidimi aytgin, ey hayot.*

*Onangni qaxshatib, ketding qayoqqa,
Nimadir tiqilar tinmay tomoqqa,*

*Tilim aylanmaydi, bir so'z demoqqa
Ko'ngling tinchidimi aytgin, ey hayot.*

*Muhammad do'stimni sen tortib olding,
Qismatni jilovlab izmingga solding,
Pahlavon o'rtog'im qaylarda golding,
Ko'ngling tinchidimi aytgin, ey hayot.*

*Chimildiq ko'rmagan navnihol jayron,
Butun Changal ahli lol bo'ldi, hayron,
Nolamni eshitib yig'ladi jahon,
Ko'ngling tinchidimi aytgin, ey hayot.*

*Yuzimni yuvdi-ku, oqqan ko'zyoshim,
Sevgani der "bugun botdi quyoshim",
Zahardayin o'tmas - tomoqdan oshim,
Ko'ngling tinchidimi aytgin, ey hayot.*

*Quyoshga birlashib botib ketdingmi,
Oqar daryolarda oqib ketdingmi,
Shu yoshda hayotdan bezib ketdingmi*

===== Sanjar ISOMIY

Toshbag'ir ekansan bilgin, ey hayot.

*Mana qarshingdaman, o'tiribman jim,
Yuribman ko'ylagim bo'lsa ham g'ijim,
So'nib borar bo'ldi bilakda kuchim
Qadringa yetmabmiz bo'lsang sen hayot.*

*Darddoshim yo'q bugun,
do'stim yo'q bugun,
Bag'rim qonga to'lib yig'ladim yum-yum,
She'rim o'qib bo'lmang yuragi tugun,
Barbir buni bilmas toshbag'ir hayot.*

CHEKAMAN FIROQ

*Do'st bilib yurganlarim sirlarim sotdi,
Bu besh kunlik dunyoda har tomon otdi.
Ko'rmas ekan ko'zlarim qorami yo oq,
Taqdirimga ko'nibon chekaman firoq.*

*Qalbim qurg'ur nega soddasan
bunchalar,
Aldanganing ham yetar endi shunchalar,
Dunyoda mehribon insonlar ko'p biroq
Yolg'izgina bir o'zim chekaman firoq.*

*Mardlar yo'qdir maydonlarga
chorlagani,
Kimni ulug'lagan, kimni zorlagani,
Faqatgina ollohim yolg'iz bir guvoh
Hasrat to'lib yuragim chekadi firoq.*

*Nafsi baland puldorning ko'zi
to'yguncha,
Joni qattiq qashshoqning noni
bo'lguncha,
Faqirlar farzandining qorni to'yguncha,
Hasrat to'lib yuragim chekadi firoq.*

*Shaytonlar insonga xos libos kiyibdi,
Ular ko'ngliga turli nayrang tuyibdi,
Yo'llarimni to'smasdan yuringlar yiroq -
Yolg'izgina bir o'zim chekayin firoq.*

*Shoshilmagin seni ham do'sting
sotguncha,
Gunohlaringga bo'yning bilan botguncha,
Ko'ngling to'q bo'lib tursin mayli buguncha,
Hozir mening navbatim chekayin firoq.*

*Samolarga uchsang ham unutma yerni,
Doim qadriga yetgin peshona terni,*

*Vafo istab yozdi Sanjar ushbu she'rni,
Zero barcha insonlar chekmasin firoq.*

DAVRIM KELADI

*Ko'rasan qorlar erib bahor keladi,
Unutma xotiralar bag'ring tiladi,
Bilmagaysan bularni kim ham biladi
Qarab turgin, meni ham davrim keladi.*

*Hozir suyan o'sha bir soxta tog'ingga,
U ham to'yadi bir kun seni qoningga,
Yalinsang-da, bormayman shu payt
yoningga,
Qarab turgin meni ham davrim keladi.*

*Sen tanlagan yo'llaring qalbingni tilar,
Sevgi qadrin telba-yu, sevganlar bilar,
Roziman buguncha qalbim nimtalar,
Qarab turgin meni ham davrim keladi.*

===== Sanjar ISOMIY

*Yuraver sen o'zgani ko'nglini ovlab,
Omadim ham keladi, yillarni quvlab,
Lol bo'lmagin o'sha payt yoqangni ushlab,
Qarab turgin meni ham davrim keladi.*

*Bu so'zlarim sengadir unutmama sira,
Kulib abgor aylading qalbimni yara,
Yuzga oyoq qo'yding – she'r bo'ldi mana,
Qarab turgin mening ham davrim keladi.*

EGMAGIN BOSHIM

*Yaqinim deb yurganim jafo tilaydi,
Turli xil tuhmatlarga meni belaydi,
So'ramoqdan o'zga bir chora
topmadim,
Bandangni oldida egmagin boshim.*

*Ko'ksimdan itardi yoniga borsam,
Bitta shirin so'zni shaydosi bo'lsam,
Cho'kib ketsa hamki ko'zimga qoshim –*

Bandangni oldida egmagin boshim.

*Siring aytsang kun kelib qiladi xor,
Qolmadi insonda g'urur bilan or,
Ey xudoyim sendan bir o'tinchim bor,
Bandangni oldida egmagin boshim.*

*Baxtli kunlarimda suyanchiq bo'lar,
Baxtsiz kunlarimda ketar-yo'qolar,
Endi yigirmaga yetganda yoshim,
Bandangni oldida egmagin boshim.*

*Boylik kerak bo'lsa, olsin borimni,
Lozim topsa olsin kasbi korimni,
Raqiblar oldida saqlab orimni,
Bandangni oldida egmagin boshim.*

*Dard to'la alamim qog'ozga ayon,
Ish tushsa boshimga ketishar har yon.
Ortdan nishin qadab chaqsa ham
chayon*

===== Sanjar ISOMIY

Bandangni oldida egmagin boshim.

*Mayli haydamasin o'zim ketaman,
Mehrsiz, soxta do'stni endi netaman,
Hali ular uchun she'r ham bitaman,
Nomardni oldida egmagin boshim.*

GURUHIMIZ QIZLARI

*Do'stim, sizga ataylab,
Bir gap aytar avaylab,
Qo'yadi qalbga joylab,
Guruhimiz qizlari.*

*Gullar olar andoza,
Nargiza-yu Dilnoza,
Qalblarni o'rtar rosa,
Guruhimiz qizlari.*

*Yurishlari orasta,
Qoshlar qalam, payvasta,
Ko'rganni qilar xasta,
Guruhimiz qizlari.*

*Bir biridan a'lodir,
Qolmas yomon izlari,
Gapga chechan, balodir
Guruhimiz qizlari.*

KEKSALIK GASHTINI SURSIN....

*Bu hayot o'tkinchi ajib bir olam,
Zum etib o'tadi yetmaydi nolam,
Kimnidir ko'ngli to'q, kimda bor alam,
Armonsiz damlarim yuzini bursin -
Hamma ham keksalik gashtini sursin.*

*Farzand dog'in aslo ota bilmasin,
Zor qaqshab onalar bag'rin tilmasin,
Achchiq qismat sharobin hech totmasin,
Baxt qasri to'rini to'ldirib tursin -
Hamma ham keksalik gashtini sursin.*

*G'ururni eng buyuk bilgan bobo ham,
Farishtaga dars bergan momolar ham,
Kulib yursin, bo'lmasin ko'zlari nam,
Ajin bosgan yuzidan nur yog'ilsin -
Hamma ham keksalik gashtini sursin.*

Egilmasin farzand oldida boshi,

*Kulfatlar ko'rmasin oqargan qoshi,
Nabira eng buyuk bo'lgan-quyoshi,
Barchaga mehrini ulashib yursin,
Hamma ham keksalik gashtini sursin.*

*Qariyalar uyini ular bilmasin,
Farzandga insof ber, g'aflat bosmasin,
Qaytar dunyo qaytsa, aqli shoshmasin,
Duo ol, seni deb duolar qilsin,
Hamma ham keksalik gashtini sursin.*

*Mehmonmiz dunyodan ketamiz bir kun,
Bolam deb kuyunar, tinmay kun-u tun,
Sendan ko'p qayg'urgan farzanding
uchun,
Qalbi muzlar Sanjar hasratin bilsin,
Hamma ham keksalik gashtini sursin.*

CHARCHADIM ZAHAR TILLARDAN

*Ko'ngil uchun ovutmoqni o'rgatdingiz,
Ko'cha-ko'yda g'iybatim-u nayrang qilib.
Tildan qolgan bu qalamni uyg'otdingiz
O'zni osmon, meni go'yo yerdek bilib.*

*Jonga tegdi soxta, nopok hiylalar ham,
Rost so'zlangiz dushmanmisiz yoki do'st.
To'lib tohsa kamdekmi ko'zlarda nam
Sizlar uchun to'lmagani yaxshi, durust.*

*Eh sizdek tovlanmoqni eplolmadim hech,
Qoyil goldim nayranglar ro'parasida.
Sizlarga haqni aytdim, bo'lmasidan kech,
Men haqdirman adolatning borasida.*

*Jim omad tilayman, tilagayman imkon,
Aldandim qizlardan-u, soxta dillardan,
Tinch qo'ying, ko'ksim to'la bo'lsa-da
tikon
Bugun horib charchadim zahar tillardan.*

ULG'AYISH AZOBI =====

MESSI

*Oltin to'ping ham doston,
Ronaldo bo'ldi hayron,
Van Deyk qalbi ham vayron,
Qoyil senga Messijon.*

*Pele tan berdi senga,
Chimirib yo'q qoshini.
Zidan boqqanda senga
Changallab kal boshini.*

*Realchi ko'ksi yonib,
Turishibdi qarashib.
Turar qo'lingda yonib,
Oltin to'ping yarashib.*

*Messi maydonda toki,
Futbolda eng keragi.
Ronaldo deydi balki-*

Menman futbol malagi.

*Zarba yo'lla ayamay,
Raqib, darvoza titrar.
Ne bo'lganin anglamay
Senga raqiblar qarar.*

*Himoya jonga tegar,
Chiqmas esa hech yulduz.
Futbol o'ynar, bosh egar
Himoyachilar essiz!*

*Sanjar "barsa"chi bo'lib,
Senga atab she'r yozdi.
Gollaring ko'rib hayron,
Aqldan ozayozdi.*

SENSIZ

*Xazon to'la bog'larda,
Yuraman endi yolg'iz.
Xayollar og'ushida
Yuraman nahot sensiz.*

*Amalga oshmas tilak,
Ming tilka bo'ldi yurak,
Javob bergin, ey falak,
Qanday yashayman sensiz.*

*Huvullaydi to'rt devor,
Qalbimga berib ozor,
Endi qo'lga olib tor,
Kuylayman nahot sensiz.*

*Ishq yo'lida qoqilib,
Dard tubiga yiqilib,
Orzuni uloqtirib,
Yashayman nahot sensiz.*

OLLOH BIZNI KECHIRGIN

*Qafasdagi qushlarni,
Ey do'stginam uchirgin.
Fursat yetib kelganda,
Olloh bizni kechirgin.*

*Abadiy bildik jonni,
Poylab har bir imkonni,
Sotdik pul uchun qonni,
Olloh bizni kechirgin.*

*Bahor aylandi kuzga,
O'zni solmadik izga,
Sinoving berib bizga,
Olloh bizni kechirgin.*

*Sirg'a taqdi erkaklar,
Aytmam sizga ertaklar,
Qizlar bo'ldi ermaklar,*

Olloh bizni kechirgin.

*Aylama o'zni giryon,
Ko'zingni och, ey inson,
Boshqa bo'lmaylik sarson
Olloh bizni kechirgin.*

*Naqsh o'yib badanga,
Tig' ko'tardik odamga,
Toshlar otdik Vatanga
Olloh bizni kechirgin.*

*Mudrar ekan ko'zimiz,
Gunoh qildik o'zimiz,
Takror aytar so'zimiz,
Robbim bizni kechirgin.*

QALB KO'ZGUSI

*Aytsam ochiq haqiqatni
telbalikka yo'ymangiz,
Ba'zi birovga o'xshab
xatoga yo'l qo'ymangiz,
Bu besh kunlik dunyoni
abadiyga yo'ymangiz,
Kelib ketar umringizda
oxiratni o'ylangiz.*

*Qizlar ochiq yurishsa
sharmandaga yo'ymadik,
G'aflat bosdi hammamiz,
ka'baga bosh qo'ymadik.
Zar-u ziynat o'yimiz,
boy bo'lishdir orzular
Inson qadrin negadir
qadriyatga yo'ymadik.*

*Ota-ona farzand deb,
yo'lga qarab qolganda,
Ishni bahona qilib,
biz nazarga olmadik.
Endi hayot boshlarga
og'ir sinov solganda
Ortdan g'iybat qilishdan
bir zungina qolmadik.*

*Qarang ne-ne inson bordir
nomin ulug' aylagan,
Taqdirlar o'xshash, lekin
qalblar ko'zgusi boshqa.
Tanlang balki xudo sizni
ezgu ishga chorlagan
Afsus nadomadlar-la,
boshni urmasdan toshga.*

SEVGIMGA YETOLMADIM

*Sevgimga yetolmadim,
Qo'lidan tutolmadim,
Sababin bilolmadim,
Taqdir bizni ayirdi.*

*Yo'llarda qoldi izlar,
Davo topmadik bizlar,
Yordam bering azizlar,
Taqdir bizni ayirdi.*

*O'tdi qancha baxtli dam,
Go'zal edi bu olam,
Qalbimga solib alam,
Taqdir bizni ayirdi.*

*Balki topmadik chora.
Uzildi so'nggi tola,
Imkon bermay bir bora,*

Taqdir bizni ayirdi.

*Armonning ham ko'ngli to'q,
Nahot endi sevgim yo'q,
Qalbni go'yo teshib o'q,
Taqdir bizni ayirdi.*

*Gullamay bo'ldi xazon,
Dalda bermas bir inson,
Shoir Isomiy sarson,
Taqdir bizni ayirdi..*

ULG'AYIBMAN

*Hayotda yashashni siz o'rgatdingiz,
Vaqtning ham o'tib ketishin bildim.
Oqaribdi tundek qora sochingiz
Ulg'ayibman, qaradim, sezdim.*

*Past ketmagin bolam, rost degan siz -
ku,
To'g'ri yur, hamma to'g'ri degan siz -
ku,
Bu dunyoda bor davlatim ekansizku,
Ulg'ayibman, angladim, sezdim.*

*Esimda boshingizga tashvish solganim,
Bu achchiq hayotda ojiz qolganim,
Haqiqat, rostligin bugun angladim
Ulg'ayibman, o'yladim, sezdim.*

Hayotda qoqilsam, siz suyanganim,

===== Sanjar ISOMIY

*Quvonsam quvonchim, quvonganım,
Bevafo dunyoda tanho ishonganim,
Ulg'ayibman, so'yladım, sezdim.*

*Boshingiz egmasman nomard oldida,
Ziyorat qilursiz yurakka tuydim.
Qirq sakkiz bahoringiz ostonasida
Ulg'ayibman, qaradım, bildim.*

*Faxr bo'lar yutug'im tinglab, bilaman,
Ko'zingiz shodlanar qarab, bilaman,
Siz borlingizga ko'krak keraman,
Ulg'ayibman, qaradım, bildim.*

*Yoshligimda meni sochimni silab,
Har doim men uchun omadlar tilab,
Shaharga ketsam gar izlarım qarab,
Ulg'ayibman, xotirlab bildim.*

Aslo pastlarga yaqin yo'lamayman,

ULG'AYISH AZOBI =====

*Nomardga ishim yo'q, qaramayman,
She'rim maqtamayman,
maqtashga yaramayman,
Ulg'ayibman, angladim, bildim.*

*BUYUK O'ZBEK ELINING
DAHOLARINI*

*Holimga hech kimsa nazar solmasdi,
Qaniydi qush bo'lib samoda uchsam.
Qalbni ado qilar armon qolmasdi,
Olisdagi bobom qabrini quchsam.*

*Borar edim Hindiston tomonlarga,
Kezar edim arab sahrolarini.
Kuchini ko'rsatardim yomonlarga
Buyuk O'zbek elining daholarini.*

*Manguberdi bobom ot mingan zamon,
Hech xotirjam uxlolmadi Chingizxon.
Nomini tarannum eturmiz har on
Buyuk O'zbek elining daholarini.*

*Temur bobom dunyo yarmini oldi,
Sohibqiron nomin dillarga soldi,*

*Yana tanimagan ayting kim qoldi,
Buyuk O'zbek elining daholarini.*

*Nafis qalam kuchin ko'rsatdi bir er,
Jahonni zabt etti hazrati Alisher,
Ne-ne shoirlar ham yozganida she'r
Anglar O'zbek elining daholarini.*

*G'anim ostonada nayza otganda,
Shiroq dushmanlarni aldab sotganda,
Yevropa chaqmoqdan qo'rqib
yotganda
Eslang, O'zbek elining daholarini.*

*Fitrat bobom jadid maktabin ochdi,
Turkiston xalqiga ma'rifat sochdi,
Butun jahon bo'ylab hurmati oshdi,
Buyuk O'zbek elining daholarini.*

*Buyuk insonlarni zurriyodiman men;
Alpomish, Beruniy avlodiman men,
Uvaysiy, Nodira, farzandiman men,
Buyuk O'zbek elining daholarini.*

*Tarix aytib turar yosh-u qariga,
Kimning yaxshi amal, xatolarini,
O'tmishin yetkazing yoshlar, bariga,
Buyuk o'zbek elining daholarini.*

ULG'AYISH AZOBI =====

*CHAPAK CHALIB
YIG'LADIM*

*Yuzingdagi qalam qosh,
Xanjarmidi sevgilim.
Firog'ingda bergan jon,
Sanjarmidi sevgilim.*

*O'tmish bugun qalbimni,
Torlarin chertib ketdi.
Aytay desam dardimni
Dilginam yonib ketdi.*

*Soxta emas asli chin,
Baxtli bo'lsang mayliga.
Seni sevganim uchun,
Boraman gul sayliga.*

*Ustun bilding o'zgani,
Ayblamasman seni hech.*

*Toshdi sevgim o'zani
Boshqarolmam, endi kech.*

*Yangalar ham to'yingda,
Aytgandir lapar, o'lan.
Baxtli bo'l sevganing-la
Ko'rmagan ko'zing bilan.*

*To'ying bo'lib o'tgan tun,
Qalbginamni tig'ladim,
Bilmaysan-da o'sha kun
"Chapak chalib" yig'ladim.*

*Nomardlar yo'ldan urib,
Qilmading menga vafo.
Qalbga armon in qurib
Ko'rganim bo'ldi jafo.*

*Endi tun kunsiz qolar,
Oy quyoshga boylanar.
Sanjar dardga jo'r bo'lib
She'r yozmoqqa shaylanar.*

DO'ST HAQIDA

*Do'st ikki xil bo'larkan,
Biri soxta, biri chin,
Qalbing shavqqa to'larkan
Chin do'st ko'rsatsa kuchin.*

*Hatto balchiqqa botsa,
Seni aslo tark etmas.
Agar do'stlaring sotsa,
Jarohating hech bitmas.*

*Soxta do'st topsang agar,
Bayram kuning bo'lmaydi.
Ishing yaxshi bo'lsa ham
Ko'ngling sira to'lmaydi.*

*Go'yoki ular sen deb,
Bag'rini ham tilarlar,
Yordam o'rniga ha deb*

O'zin osmon bilarlar.

*Do'st bilib yurganlaring,
Ortdan g'iybat qilarlar.
Yonida turganlarni
Bir haschalik bilarlar.*

*Boshni urmasdan toshga,
Har ishda bo'lg'in halol.
Befarq bo'lma birodar,
So'zim kelmasin malol.*

XOTIRALARIM...

*Muhabbatim -la ko'karib, so'lib,
Ezgu niyatga limmo lim to'lib,
Bahor chog'ida orzumand bo'lib,
Sevishimni aytdim sinfdosh qizga.*

Niyatim xolis, biror shubha yo'q,

*Xiyonat kutmam undan, ko'ngil
to'q,
Go'yo qalbiga qadagandek o'q,
Sevishimni aytdim sinfdosh qizga.*

*Kim yoqa ushlar qarorim tinglab,
Kimdir hayron bo'lib tishladi lab.
Olovday sevgim cho'g'larin qalab
Sevishimni aytdim sinfdosh qizga.*

*Sevaman dedim, ming titroq bilan,
O'ylab ko'ray dedi ishva bilan,
Uzoq tayyorlanib do'stim bilan,
Sevishimni aytdim sinfdosh qizga.*

*Sevdim yoshligimdan bo'ldim judo,
Sevgim deb sahroda bo'ldim gado,
Shu go'zal qizni deb bo'ldim ado,
Sevishimni aytgach sinfdosh qizga.*

Biz baxtli edik olamda tanho,

*Arazlashib ham qolardik goho,
Yarashib olib ko'p o'tmay, ammo
Sevishimni aytdim sinfdosh qizga.*

*Oradan vaqt o'tdi, yoz-kuz o'tdi,
Kim qabrga ketdi, kim beshik tutdi,
Yo'lin ba'zan poyloqchilar kutdi
Sevishini aytib sinfdosh qizga.*

*Quloq tutmas qalbimdagi so'zga,
Oxir borib ko'z yosh to'ldi ko'zga,
Mendan ayrildi, aylandi o'zga,
Sevishini aytib sinfdosh qizga.*

*Shu yoshimda azob mayin totdim,
Ishqda adashib o'rtada qotdim,
Dil balchig'iga belgacha botdim,
Sevishimni aytib sinfdosh qizga.*

Kimdir dedi, yigit yig'lamaydi,

*Kuyinma dardingni tinglamaydi,
Shoir bisyor isomiyni anglamaydi,
Arzimas ko'z yoshlar sinfdosh qizga.*

*Hayot o'yindir, kim boshlar cho'lga,
Cho'ktirmoq uchun boshlaydi ko'lga,
Ota-onang boshlar eng to'g'ri
yo'lga.
Arzimas dardlarim sinfdosh qizga.*

*Dedim: barcha azob bir kun bitar,
Shuncha yonganlaring bo'ldi yetar.
Kun kelib omad ham qo'ling tutar,
Dardlarimni aytdim, sinfdosh qizga.*

UMR QISQA

*Qismat mayxonasida goh qotib, erib,
Pishgan daraxt mevasin saralab, terib,
Vaqt ham o'tib borarkan shamolday
yelib,
Hayot qisqaligini bilib olamiz –
Barchasini bilganda qarib qolamiz.*

*Sochlarimiz oqarar bildirmay lekin,
Hammasi tinch ko'rinar, tundayin sokin,
Birdek yetib boramiz arsh tomon sekin,
U yerlarda barchani tanib olamiz,
Chiroyli ajin bilan qarib qolamiz.*

*Kim ham qolar dunyoda abadiy, omon,
Hamma gunoh qildilar yomondan
yomon,
Joynamozga yetdimi aytingchi iymon?
O'zimiz qachon to'g'ri yo'lga solamiz?*

Ka'baga bosh urmasdan qarib qolamiz.

*Savol chog'i ham zino tortar oyoqdan,
O'ylamang ojiz qalbi qattiq tayoqdan,
Lol bo'lmang bu gaplar keldi qayoqdan,
Vijdon azoblariga botib qolamiz,
Rost so'zlash o'rniga biz qotib qolamiz.*

*Insonlarga ne bo'ldi, har tomon chopar,
Yordam istab borganga eshigin yopar,
Zahar til bilan ba'zan ortingdan qopar,
Ko'karmasdan qoladi tog'da lolamiz,
Aldanamiz dunyoga dog'da qolamiz.*

*Qarang, dunyo ham asli eng katta
bozor,*

*Boy-u kambag'alni ham teng qilar
mozor,*

*Kinga yupanch o'rniga berarmiz ozor,
Hijronlardan uzilar ko'ngil tolamiz*

===== Sanjar ISOMIY

Tuzatmoqqa kelganda qarib qolamiz.

*Ho-yu havas ortidan chopmangiz sira,
So'zlarim ham qalbingiz qilmasin xira,
Tuzatingiz xatoni bo'lmasdan yara,
Nasib qilsa yetadi ko'kka nolamiz.
Olloh kalomi bilan qarib qolamiz.*

TOG'LARNI OSHIB

*Seni visolingni axtarib har yon,
Qora ko'zing menga bo'ldi-ku armon,
Kimdir dalda berar, shunchaki
yolg'on,
Qayda bo'lma gulim, bo'lg'in sen
omon.*

*Olislab borarsan vujuding jo'shib,
Bitmagan armonga armonlar qo'shib,
Yig'lasam daryolar ketti-ku toshib,
Yuribman go'yoki tog'larni oshib.*

*Xiyonat azobin yenga olmadim,
Ming la'nat, sevgimga, yeta olmadim,
Begim deya bir bor qiyo boqmading,
Taqdir ekan undan gocha olmadim.*

Baxtlisan, bilaman yolg'izim mening,

===== Sanjar ISOMIY

*Axtarib topolmay izlaring sening,
Senda ayblar yo'qdir, yo'q aybim
mening
Yorug' bo'lsin mensiz beg'ubor kuning.*

*Asrab qololmayin tunlarim bedor,
Bilmaysan bu g'arib kunlarim ozor,
O'ylayverib ko'ngil bo'ldi-ku bemor,
Derlar har azobning bir shirini bor.*

BORIM EDING

*O'ngda emas, ro'yolarda,
Xayol surar yorim eding.
O'tar ketar dunyolarda,
Tanho o'zing borim eding.*

*Labing titrab, sen ne uchun,
Siz ishongan tog'im deding.
Unutmagin o'shal tog'ni
Faqatgina o'zing buzding.*

*Yonginangda bo'lsam erkam,
Balki shodon kulmas eding.
Ehh!!! qanchalik baxtliligim
Nahotki sen bilmas eding.*

*Ishq-muhabbatdan kechib,
Sirim sochib dunyoga,
Uygim ham ketti qochib*

Tush aylandi ro'yoga.

*Men sen uchun zor bo'lganda,
Sen men uchun zor bo'lmading.
Huvullagan tor kulbada
Menga mushtoq yor bo'lmading.*

*Ma'no izlab bu tilakdan,
Qalb badalin to'lamasding.
Sevganingda chin yurakdan
O'zgaga hech yo'lamasding.*

*Savollarga javob yo'qdek,
Tikonzorda lolam eding.
Bugun yondim bo'lib cho'g'dek
Yolg'iz dardli nolam eding.*

SO'RA

*Sen o'zganing qoshlarin,
Silab yurgandan ko'ra.
Artib qonli ko'z yoshlarin,
Qalbimdan ahvol so'ra.*

*Chamanzorda ham gulgun,
Xayol surgandan ko'ra.
Haqiqiy baxt neligin
Kelib o'zimdan so'ra.*

*Soxta qalbingni tilgin,
Kulib yurgandan ko'ra.
Qaytar dunyo neligin
Borib yomg'irdan so'ra.*

*Gullari ham so'ligan,
Uni o'ylashdan ko'ra.
Senga atab yo'nilgan,
Qalamdan najot so'ra.*

BEVAFO

*Mudroq bosgan bu ko'zim,
Ko'rmadi sendan bo'lak.
Hasrat to'la har so'zim,
Sevishimdan bir darak.*

*Baxtlimisan endi ayt,
Mensiz o'tgan kunlarda.
Qalb deydi ortingga qayt,
Bedor o'tgan tunlarga.*

*Dard to'la nolang bugun,
Ko'zlaring aytib turar.
Ko'nglingga otash tugun
Armonlar qasrin qurar.*

*Xasta bo'ldim ishqingda,
Yolg'iz senga bu tilak.
Baxtlisan endi, senga*

Xasta shoir ne kerak.

*Qushlar sodiq juftiga,
Hatto hayvonda vafo.
Sevmasam bo'lmasmidi
Sevibman-da bevafo.*

O'Z-O'ZIM BILAN SUHBAT

*Savol ko'pdir bu hayotda: nima qilding,
Sorashsalar javobimni, nima qilay?
Desalar: shuncha vaqtni ham zoya qilding
Bahonaga so'z topmasam, nima qilay?*

*Kun kelib azroil ham tepamda tursa,
Qo'lim cho'zsam olam menga yuzin bursa,
Yaxshi amallaringni sanagin desa,
Birin-ketin sanolmasam nima qilay?*

*Kecha-kunduz tentirab o'zni bilmabman,
Bu yo'lingdan qayt degan so'zni
ilmabman,
Onam uchun bir bora ko'ksim tilmabman,
Ko'zlariga qarolmasam, nima qilay?*

*Zahar tomar, kalomlar o'rniga tildan,
Farq qilmas bo'lsa agar ko'zyoshim seldan,*

*So'rasa: biron duo oldingmi eldan
Tilim nochor aytolmasam nima qilay?*

*Ko'zinga tuproq to'lib, to'yarman endi,
Barcha gunoh ishlarni qo'yarman endi,
Gul emas ilon zahrin suyarman endi,
Ortga bir bor qaytolmasam nima qilay?*

*Isomiy so'zlarini rost deb bilgin,
Chin haqiqat uchun joningni bergin,
Halol mehnating-la, rizqingni tergin,
Nodonlarga aytolmasam nima qilay...?*

OYMOMO

*Falakka sochib ziyo,
Ko'kka chiqdi oymomo.
Balki banddirsan, ammo,
Yaqinroq kel gapim bor.*

*Ranging bunchalar somon,
Xuddi yosh bir bolasan,
Sababin ayt shu zamon,
Yo'q bo'lasan - qolasan.*

*Ranjitdikmi atayin,
Arazdingmi bilmayman,
Senga bir sir aytayin,
Endi boshqa sevmayman.*

*Bu ne savdo ne ofat,
Aytgin orzu sarobmi.
Insonga -ku dard foyda,
Tanga malham sharobmi.*

*Telbadek olam kezar,
Qalbga iymon panohmi,
Ba'zan dil sog'inch sezar
Sog'inish ham gunohmi.*

Dardimga qaramaysan,

*Qarashga yaramaysan,
Kulmaysan – yayramaysan,
Tut qulog'ing gapim bor.*

*Samoning dur, dilbari,
Quyoshingmi senga yor.
Tamom bo'lmasdan bari,
Yaqinroq kel gapim bor.*

ROZI BO'LING

*Goh ko'karib, goh so'lsam,
Ishqda devona bo'lsam,
Xiyonatni deb o'lsam,
Siz mendan rozi bo'ling.*

*Qiynamoqda bu hijron,
Zarra qolmadi imkon,
Ishq uchun bo'lsam sarson,
Siz mendan rozi bo'ling.*

*Bir begona bo'lsam ham,
Goh devona bo'lsam ham,
Endi yolg'iz qolsam ham,
Siz mendan rozi bo'ling.*

*Sodda qalbim sanchadir,
Dard yuragim yanchadir,
Hijroningiz anchadir,
Siz mendan rozi bo'ling.*

*Sevgim gullamay so'ldi,
Ko'zyoshdan daryo to'ldi,
Ruhim qanotsiz bo'ldi,
Siz mendan rozi bo'ling.*

BEVAFOQA DIL SO'ZIM

*Xiyanating bilindi erkam,
Qilmasang ham oshkora bo'ldi.*

*Yoningamas qorong'u, shinam
Borlar joyim mayxona bo'ldi.*

*Tilagim ko'p, olisdan olis,
O'qishga -ku umring yetmaydi.
Qisqa lekin chindan ham xolis,
Besh daqiqa vaqting ketmaydi.*

*Bedor o'tsin bu uzun tunlar
Jazolasin zarra ayamay.
Uchib o'tsin oppoq tutunlar,
Holatingga bir bor qaramay.*

*Tamg'a bo'lib bosildi bugun.
Qalbginamni yaraladi U,
Qiynasinlar seni ham uzun
Orom bermasin ko'zda uyqu.*

*Sevish gunoh, o'zim gunohkor,
Qara endi jismim bor xolos.
Ruhim mudroq ayladi bedor,*

===== Sanjar ISOMIY

She'r yozaman ermakka xolos.

Zora qalbim topsa bir malham,

Qofiyalar bersa bir najot.

Etagidan tutardim mahkam -

Tashlab qo'yma beshafqat hayot.

Qalb eshigi yopiq sen uchun,

Sitamlaring yetar, bo'ldi bas.

Ertaklaring so'ylama uzun

Demasimdan "hayot kerakmas".

O'YLAMAY BO'LMAS

Bahorning ilk yomg'iri,

Qalbimga taskin bermas.

Tugar izhor oxiri,

Seni o'ylamay bo'lmas.

*Bo'lsa ham guldek go'zal,
O'zgan ko'nglim to'lmas.
Bitsam-da unga g'azal
Seni o'ylamay bo'lmas.*

*Ketsa-da dard-u alam,
Ishq o'ti nega so'nmas.
Har lahza qo'lda qalam
Seni o'ylamay bo'lmas.*

UKAM BILAN SUHBAT

*Seni diydoring tilab,
Har kun o'zimni aldab,
Uxlolmadim haftalab,
Ukam qadring bilindi.*

*Kulgularing yodimda,
O'tirarding yonimda,
Sensiz o'tgan onimda,
Ukam qadring bilindi.*

*Bu dard bunchalar og'ir,
Sog'inib ketdim axir,
Sanchadi, og'rir bag'ir,
Ukam qadring bilindi.*

*Ba'zilar juda puldor,
Ba'zilarchi nonga zor,
Aylading meni bemor,*

Ukam qadring bilindi.

*Yolg'izlik, diydor uchun,
Ketding olisga nechun,
Kimga yolg'on kimga chin,
Ukam qadring bilindi.*

*Qon tomirim uzildi,
Diydor buncha cho'zildi,
Yosh jisming ham ko'mildi,
Ukam qadring bilindi.*

*Dunyoga yuz burdingmi,
Shirin orzu surdingmi,
Jannatda uy qurdingmi,
Ukam qadring bilindi.*

TAFTING ASLI SHAMMIDI

Ketarsan o'zga bilan,

*Xotirangni olib ket.
Dardga davolar bilan,
Qalbga ilinj solib ket.*

*O'rnim endi yiroqdek,
Senga mehrim kammidi.
Shu'la sochgan chiroqdek,
Tafting asli shammidi.*

*Bevafoyim, go'zal yor,
Qirg'og'i yo'q dengizman.
Yonimda do'stlar bisyor,
Men yolg'izman, sensizman.*

*Kun-u tun davo izlar,
Dardga malham bo'lmadi.
Soxta jilmaygan ko'zdan
Qalbim sira to'lmadi.*

*Shunchaki siltading qo'l,
Taqdiringdan ko'raver.*

ULG'AYISH AZOBI =====

*To'rt tarafing to'rtta yo'l
To'rt tomonga ketaver.*

NAFRAT BILAN O'CH

*Ba'zilar chox ichra davrini surgay,
Kimdir cho'qqi uzra o'tga kelgay duch.
Har kim peshonada borini ko'rgay,
Bir yonda muhabbat, nafrat bilan o'ch.*

*Kimdir bu dunyoning jafosin tortar,
Kimningdir orzusi bir kun bo'lar puch.
Kula turib qonli ko'z yoshin artar
Bir yonda muhabbat, nafrat bilan o'ch.*

*Sog'inganing ko'rging kelsa kun sayin,
Olidan ko'rinar g'aroyib bir kuch.
Qalb to'ridan nido chiqsa shundayin
Bir yonda muhabbat, nafrat bilan o'ch.*

*Kimdir nolimasdan shukur aytadi,
Icholmas hatto suvni bir hovuch.
Gunoh qilsang bir kun senga qaytadi,*

Bir yonda muhabbat, nafrat bilan o'ch.

*Kimdir insonlarni yaxshi deb bilar,
Kurmaksiz emasdir, hattoki guruch.
Kerak bo'lsa sevging qalbingni tilar
Bir yonda muhabbat, nafrat bilan o'ch.*

*Aldanishni ey, do'st, ko'rmasman ravo,
Metin irodani bukar bunday kuch.
Do'stlarim bu so'zim unutmang also,
Bir yonda muhabbat, nafrat bilan o'ch.*

ONAM

*Onam desam vujudimni titroq bosar,
Bo'yim o'sdi endi, qachon aqlim o'sar,
Sanjar sizni sog'inib, shu she'rni yozar,
Yolg'izgina o'g'lingizdan salom ona
Baxtinga omon bo'ling, bor bo'ling ona.*

===== Sanjar ISOMIY

*Yuribman baxtimni ko'chadan izlab,
Sog'inib yurasiz dashtlarda bo'zlab,
Go'yoki, bir ulkan omadni ko'zlab,
Qolgan g'arib o'g'lingizdan salom ona
Sog'inganim baxtinga sog' bo'ling ona.*

*Qancha vaqtlar o'tdi, sizdan xabar
olmay,
Soddagina ko'nglingizga qaray olmay,
Bitta tashvishingizga ham yaray olmay,
Qolgan g'arib o'g'lingizdan salom ona
Dardkashginam baxtinga sog' bo'ling
ona.*

*Qora edi sochlaringiz qirov bosdi,
Sutdek tiniq yuzingizni ajin bosdi,
Siz tarbiya bergan nihol soya soldi,
Ildizimiz quvvatisiz, baxtim ona,
Chiroyligim baxtinga sog' bo'ling ona.*

TUG'ILGAN KUNING MUBORAK...

*Tinglagin sengadir yolg'iz bu so'zim,
Sendan o'zgasini ko'rmas bu ko'zim,
Sevdim erkatoyim, yolg'iz bir o'zim,
Ko'zlarim ko'rmoqlik uchun jon halak
Tug'ilgan ayyoming bo'lsin muborak!*

*Qanchalar ma'no bor kiprik, qoshingda,
Uchratdim seni men o'n besh yoshingda,
Sunbul sochlaring turar yonboshingda,
Qalbim uchrashmoqlik uchun jon halak,
Yigirmanchi bahor bo'lsin muborak!*

*Eslaysan lahzada ming bor, bilaman,
Kerak bo'lsa sen deb bag'rim tilaman,
Vujudim kuysa-da, soxta kulaman,
Xayol ham visoling uchun jon halak,
Tavallud ayyoming bo'lsin muborak!*

===== Sanjar ISOMIY

*Ko'zimni yumsam -da visoling ko'ray,
Fig'onim oshibon xudodan so'ray,
Yaxshi niyat orzularga seni belay,
Ko'ngillar uchrashmoq uchun jon halak,
Tavallud ayoming bo'lsin muborak!*

*Doim kulib yurgin meni baxtinga,
Ishq shahridan bunyod bo'lgan
shahringa,
Malika bo'lib yur toj-u taxtinga,
Qalb qasri qadaming uchun jon halak,
Tug'ilgan ayyoming bo'lsin muborak!*

*Sevgilimga bag'ishlab men she'rlar
tuzay,
Qizg'aldoqlar aro sarasin uzay,
Senga atab gulim gulchambar bezay,
Ko'ngil shirin orzu tomon jon halak,
Yigirmanchi bahor bo'lsin muborak!*

KO'NGIL TOLAM

*Sevar edim rostanam,
Qalbimda asrab har dam,
Nechun tark etding meni,
So'ldiku gul-u lolam.*

*Visolni orzu qilib,
Goh yig'lab, gohi kulib,
O'z vujudimni tilib
Osmonga yetti nolam.*

*Bilolmay aybdorligim,
Tark etdi gulyorligim.
Ko'ngli xabardorligim,
Uzdi-ku ko'ngil tolam.*

*Ko'ngil uzib ketaver,
Maqsadingga yetaver,
Umidlaring uzaver,
Endi suyanchim qalam.*

IZOHSIZ

*Soʻz dema barchasi ayon oʻzimga,
Olislab boraver, ketaver yiroq.
Shunchaki termulib turma koʻzimga,
Orada bor bizni ajratgan firoq.*

*Qiynaydi tinmayin savollar bisyor,
Kim qoʻydi oʻrtaga ayriliq, tuzoq.
Boʻlmabmiz vaqtida ogoh va hushyor,
Ayrilib boradi yoʻllar ham uzoq.*

*Qaramading bir bor xasta holimga,
Yashash ham istirob, ogʻriq va qaygʻu.
Koʻnikib yashayman yoʻgʻu borimga
Ruhsiz vujudimda yashaydi tuygʻu.*

*Oʻtmish ziyosini ayamay sochar,
Oʻtgan kunlarimiz eslatar tinmay.*

*Ruhim ham qidirib, sen tomon
qochar,
Taqdir taqazosin nazarga ilmay.*

*Sanjar qoshlaringga bo'ldi muhtalo,
Darvesh holatini angladim o'zim.
Xotirjam bo'l, meni o'ylama aslo
Bir sodda insonman - botdi
kunduzim.*

*Endi tunlaringni o'tqazar o'zga,
Sochlaring silaydi yoningda yoring.
Kun kelib ko'zlaring tushganda ko'zga
Anglagaysan o'shal vafodorliging.*

ENDI BEGONAGA ESHIK OCHASAN

*Qismating shu asli tanlading o'zing,
Taqdiringdan gulim qayga qochasan.
Qalbga sanchiladi har bitta so'zing,
Endi begonaga eshik ochasan.*

*Eshitgin so'zimni birpas bo'lg'in jim,
Seni sevmayman deb aytgan edi kim,
Muzlab borar bo'ldi bu sodda ko'nglim,
Endi begonaga eshik ochasan.*

*Bilmaysan sensizlik qanchalar og'ir,
Yegan oshim tomoqdan o'tar taxir,
O'zing shu kunlarni kutganding axir,
Endi begonaga eshik ochasan.*

*Sen samoda eding, men esa pastda,
Yiroqlab borarding sen sekin-asta,
Telba holatimni aylabon xasta,*

Endi begonaga eshik ochasan.

*Zarra ayamading yuragim yulib,
Sur'atimiz yirtib, o'tmishni yirtib,
Dard qalbing ezsa-da, yolg'ondan kulib,
Endi begonaga eshik ochasan.*

*Vaqt o'tib kulgani kelma qoshimga,
Ollohim bir sinov berdi boshimga,
Parvo ham qilmayin ko'zda yoshimga,
Endi begonaga eshik ochasan.*

*Sevgim endi aslo senga bo'lmas g'ov,
Uchaver samoda, men bo'lay yayov,
Senga to'g'ri kelmas bundayin sinov,
Chunki begonaga eshik ochasan.*

ONA ZAMIN

*Kechir bizni ey zamin,
O'pkangga chang to'ldirdik.
Bag'ringda shodon yurgan,
Hayvonlarni o'ldirdik.*

*Chiqindi tog'dek baland,
Nafsimiz hech to'ymadi.
Daraxt kesar o'rmonda,
Vahshiylogin qo'ymadi.*

*Barchaga birdek ayon,
Xasta bo'lib yurganing,
Yogqanda barg-u xazon,
Hayron bo'lib turganing.*

*Konlarni ham ochamiz
Izlaymiz dur-u gavhar.
Har tomonga qochamiz,*

===== Sanjar ISOMIY

Lava purkasang agar.

Shamollar ham izn so'rar,

Esayin qay tomonga.

Sunami tayyor turar,

Boray qaysi yomonga.

PUL HAQIDA

*Puling bo'lsa ishing bitar bir zumda,
Buni ko'rib qalbing topadi orom.
Sovg'a-salom olib borsang bir zumda
Hurmat ila qilar senga ehtirom.*

*Marakada ko'ksiga qo'l urganlar,
Kutib olar sendan pastda turganlar,
Hammasini pulga chaqib yurganlar,
Ming bukilib qilar senga ehtirom.*

*Tillarni kuydirar sovuq oshing ham,
Toshlarni yoradi yumshoq boshing ham,
Bir zum qalin bo'lar siyrak qoshing
ham,
Do'stim deya qilar senga ehtirom.*

*Chin yolg'onlar haqiqatga aylanar,
Sen deb ular turli ishga shaylanar,*

===== Sanjar ISOMIY

*Dushmanlaring do'stlaringga aylanar,
Yaqinim deb qilar senga ehtirom.*

*Kalta qo'ling uzun bo'lar bir onda,
Tenging bo'lmas also jumla jahonda,
O'rtoqlar ham ko'payar ul zamonda,
Oshnam deya, qilar senga ehtirom.*

*Tovlanasan ming turfa kuying bilan,
Zavqlanasan obro' hurmating bilan,
Ko'kda uchar tengsiz izzating bilan,
Akam deya qilar senga ehtirom.*

*Sal qoqilsang yo'lingga otar o'zin,
Anglamaysan rostmi, yolg'onmi so'zin,
Ish bitgancha yolg'ondan namlab ko'zin,
Ukam deya qilar senga ehtirom.*

*Pul tugasa keraging bo'lmas sira,
Do'st axtarib ko'zlaring bo'lar xira,*

*Anglamaydi, diling ham bo'lsa yara,
Jigarim deb qilmas menga ehtirom.*

KETAYER

*Bir bora ortingga qarama ey yor,
Boraver alamdanda ko'ksingni mushtlab.
Sevgining olovi so'ngan tarafga,
Ketaver o'zganing qo'lini ushlab.*

*Haqiqat shu soxta jilmaygan ko'zlar,
Qancha og'ir bo'lmasin qalbdagi
so'zlar,
Sevdim deganingga endi dil bo'zlar,
Ketaver o'zganing qo'lini ushlab.*

*Chorlasam-da, sendan kelmadi sado,
Sodda qalb iztirobdan bo'ldi ado,
Baxt qasri quladi, umidlar judo
Ketaver o'zganing qo'lini ushlab.*

*Senga dard berguvchi ishqim yo'q
endi,
Dardkashdan ayrilgan qalbing to'q endi,
Xastaman qalbimda mitti o'q endi,
Ketaver o'zganing qo'lini ushlab.*

QAYG'URMA

*Chidamoqdan o'zga chora yo'q,
Sen goldirgan qayg'u-alamga.
Mendan kechib qalbing endi to'q,
Sig'may goldim yorug' olamga.*

*Ko'zingga yosh olma hech Layli,
Vujudimda dardni oshirib.
Hijron vasli sevgim tufayli,
Qaytar bir kun aqlim shoshirib.*

*Ayt bevafo aybmi soddalik,
Chidamoqqa mahkummi hijron.*

*Ko'rib turar so'zlamaydi lek,
Ko'nmoqlikka majburmi vijdon.*

*Oh-u nolam samoga yetdi,
Bilinmaydi qonlar yutganim.
Ko'kka uchdi, yo'qolib ketdi
Ostonangda yillab kutganim.*

*Yonimda baxt anglamading hech,
Zor izlarim izlarsan hali.
Goh Kunduz, goh bo'lganida kech
Kutarsan qor yoqqan mahali.*

*Kor qilmas ekanda so'zlarim,
Ketgin yonimga yor topilar.
Ko'rmas aslo seni ko'zlarim
Ko'zlar sening uchun yopilar.*

ENDI

*Telba kabi oshiq dilimni dog'lab,
Mashrab sahrosida kezarman endi.
Bo'ynimga xarsangdek toshlarni
bog'lab,
Ishqning ummonida suzarman endi.*

*Sevgimni eng baland tog'larga ko'mib,
Ayoq-u qahraton qishlarga ko'nib,
Goho bemor bo'lib, gohida so'nib,
Yonidan jilmasdan yotarman endi.*

*Ey odamlar, yo'linga bo'lmanglar g'ov,
Ishqning bemorini qilmanglar so'rov.
Hijroniga borib emaklab, yayov,
Azob visoliga qonarman endi.*

*Sir qolmadi barin olamga sochdim,
Qayg'u keldi, kulib bag'rimni ochdim,
Manzilsiz makonni qidirdim, qochdim
U yerda ayovsiz yonarman endi.*

*Insonda dard bo'lsa tebratar qalam,
Chetlab o'tsin barchani bunday alam,
Tor bo'lib ko'rinsa ko'zga bu olam,
Dardimni madh etib yozarman endi.*

*Esdalik qayg'ularim bevafo dan,
Sanjar kechib bo'lmas endi jafodan,
So'z ochmagin o'zingda yo'q vafodan,
Aytgan gaplarimdan tonarman endi.*

ASRAB QOLAMAN

*Mayli bu boshimga tushsa ham ofat,
Atay telbalikka o'zni solaman.
Sevgimiz tarixi ko'rmas talofat,
Sensiz sevgimizni asrab qolaman.*

*Iztirob vujudim kuydirsa mayli,
Dard bergin, Ollohim, o'zim olaman.
Sevgimni qidirsan nechalab Layli*

Sensiz sevgimizni asrab qolaman.

*Uzun-uzun zanjir bo'ynimga bog'la,
Uloqtir dunyoning to'rt tarafiga.
Sog'ingan ifor-la dilimni dog'la,
Sensiz sevgimizni asrab qolaman.*

*Izlab topolmaydi biron kishi hech,
Kimsasiz joylarga o'zni olaman.
Qaytmagin yonimga bo'lganida kech,
Sensiz sevgimizni asrab qolaman.*

*Shart bo'lsa, o'rtağa tikaman jonni,
Yelib yuguraman gohi tolaman.
Kun kelib yutsamda bo'g'zimda qonni,
Sensiz sevgimizni asrab qolaman.*

*Hozircha yiroqlash, shoshgin u tomon,
Qadahda ayriliq kuyin chalaman.
Qachongacha bo'lsa bu jonim omon,
Sensiz sevgimizni asrab qolaman.*

TELBAMAN

*Telbaman kundan tonib,
Tunlar bedor yotguvchi.
Jilmayib, qalbim yonib,
Xandon kulgu otguvchi.*

*Xazonman, baxtdan judo,
Qor ostida qotguvchi.
Quyoshman, bemor, gado
Sensiz ufqqa botguvchi.*

*Xayolman, bildirmasdan,
Ham visolga qonguvchi.
Orzuman, sezdirmasdan,
Vujudingda yonguvchi.*

*Sog'inchman, ko'zda yoshing,
O'z baxtimdan tonguvchi.*

*Qalb izlab, qalam qoshing
Visolingdan qonguvchi.*

*Armonman, hayollarda,
Kunda ming bor so'lguvchi.
Javobsiz savollarda,
Ham yashab, ham o'lguvchi.*

*Darveshman, ko'zdan yiroq,
Dunyolardan kechguvchi.
Qayg'u balqqan ul firoq
Dard sharobin ichguvchi.*

*Shamolman, soching silab,
Ko'klarda ham uchguvchi.
Sevgilimga baxt tilab,
Qora yerni quchguvchi.*

XIYONAT IZI

*Seni baxting deya o'zimdanda kechdim,
Beayov sog'inching qiynaydi tinmay.
Ishq deya har tomchi og'uni ichdim,
Kun kelib o'zgani suyishing bilmay.*

*Biz yurgan yo'llarda turibdi armon,
Samo ham seniki tolmay uchasan.
O'tmishni eslamay bo'lsa ham xazon,
Begonani yor deb, suyib quchasan.*

*Yosh oqar, vujudidan uchadi hushim,
Izlamading, hatto boqmading qiyo.
Bir vaqtlari qo'rqib uyg'ongan tushim
Endi-chi qarshimda bo'libdi paydo.*

*Sevgimiz jasadida yotibdi muzdek,
Ko'ksida jarohat, xiyonat izi.
Sarg'ayar yaproqlar go'yoki kuzdek,*

Bag'rida ayriliq, judolik isi.

*Ishqsiz ko'l bo'yini kezarman bedor,
Sog'inch o'z hukmini o'tkazar dilga.
Sarson bo'lgan sodda qalbginam bemor
Ovutmoqlik hecham kelmaydi tilga.*

*Bemoring holiga achinma gulim,
Nuragan baxt qasri buzildi endi.
Oz qoldi, ko'klarga uchadi ruhim,
Visol rishtalari uzildi endi.*

OPPOQ QOR KO'MDI

*Sevgim yona-yona, aylandi kulga,
Qalbdagi sog'inch-u tuyg'ular so'ndi.
Baxtli kunlarimni eslatmay dilga,
Oydin orzularni oppoq qor ko'mdi.*

Iforing izladim men shamollardan,



*Bezovta dil javobsiz savollardan,
So'rab ko'r, sochi uzun hilollardan,
Bosgan izimizni oppoq qor ko'mdi.*

*Endi qalbimda bor alamli tugun,
Nahot boylik ortidan ketting bugun,
Do'st-dushman oldida berkitish
uchun,
Ko'zdagi yoshimni oppoq qor ko'mdi.*

*Soxta ekan o'sha mayus ko'zlaring,
O'ylayverib dilim xayolga cho'mdi.
Yolg'on ekan va'dalaring, so'zlaring
Xasta yuragimni oppoq qor ko'mdi.*

*Qaytib kelib endi aytmagin ertak,
O'zganiki bo'lib vujuding so'ndi.
Pok tuyg'ularimni qilding ermak,
Sanjarning bahorin oppoq qor ko'mdi.*

*TELBAGA AYLANIB
QOLARSAN O'ZING*

*Ojizligim bilib shamol esadi,
Falakni jumbushga keltirar nola.
Ayriliq sharobi dilni kezadi,
Tarang tortilganda uzilar tola.*

*Uzildi o'rtada qolganda xatlar,
Baxtli bo'ling dedi, ketayotgan chog'.
Buzildi orada necha ming axdlar,
Faqat qoldi yolg'iz – she'rlar bir quchoq.*

*Bir vaqtlar taftida isingan olov,
Birga yoqqan o'sha ishq o'ti o'chdi.
Xatimizni bari yonganda lov-lov,
Uchqunlari kelib, shu she'rga ko'chdi.*

*Yopgan eshiging ham isming aytadi,
To'zigan hayotni izga solayin.*

*Sog'inch bir kuni senga qaytadi
Men esa yoding-la birga qolayin.*

*Sen bilan samoga uchaolmasman,
Cheksiz orzular sarobdir bugun.
Olisdagi oyni qucha olmasman,
Qanotim sen ila qolgani uchun.*

*Toabad qalbingda yashaydi Sanjar,
Iztirobdan gulim yoshlanar ko'zing.
Shirin xotiralar qalbingni yanchar,
Telbaga aylanib qolarsan o'zing.*

BILIB OLAYIN

*Meni aldashdilar angladim bugun,
Yuragimni yulib cho'g'ga solayin.
Ko'nikib ham qoldi qalbim butunlay
Do'st-u dushmanlarim bilib olayin.*

Necha-necha odam yuzini burgan,

===== Sanjar ISOMIY

*Mayli sevgim uchun telba bo'layin.
Samimiy tabassum ortida turgan,
Do'st-u dushmanlarim bilib olayin.*

*Soxta nigohlardan ko'tarib parda,
O'z ko'nglinga o'zim cho'kib qolayin.
Mayli turtkilasin qilsinlar zarda,
Do'st-u dushmanlarim bilib olayin.*

*She'r tinglab odamlar qotsinlar zalda,
Dardning visoliga tinmay qonayin.
Halovatsiz kunlar topmayin dalda,
Azobda ming bora kuyib yonayin.*

*Roziman-da, menga boqmasin quyosh,
Sodda qalbim yanchib badal to'layin.
Tinmay oqaversin ko'zimdagi yosh
Do'st-u dushmanlarim bilib olayin.*

*Olislarga boray shodlikdan qochib,
Goh shiddatli boray, gohi tolayin.*

*Boshqadan yashirgan bir sirni ochib
Do'st-u dushmanlarim bilib olayin.*

*Endi ko'zlarimni sen sekin yopib,
Nafsga tobe bo'lmas bir joyni topib,
Dard-u sitamlarni ildizin chopib,
Mangulik makonin izlab borayin.*

DARVOZA YONIDA QOLGAN YETIMLAR

*Ey inson, tinglagin so'zim bir nafas,
Qo'lingda gul, lola qalbingda qafas.
Atrofga boqarlar, qilarlar havas,
Darvoza yonida qolgan yetimlar.*

*Barcha gunohingni bo'yniga ilar,
Murg'ak yuragini bir alam tilar.
Bir so'z ham demaslar, barchasin bilar
Darvoza yonida qolgan yetimlar.*

*O'z otasi tirik, o'zi kimsasiz,
Tepib o'tar uni insonlar hargiz,
O'z uyi ko'rinar, jondan ham aziz,
Darvoza yonida qolgan yetimlar.*

*Aldashni eplolmas soxta kuladi,
Yomonmas, onasin band deb biladi,*

*Har doim ular deb duo qiladi,
Darvoza yonida qolgan yetimlar.*

*U yig'lagan joyda unmaydi nihol,
Yetim boshin sila, ko'rmassan zavol,
Qalbi tosh insonga farzandlar uvol,
Darvoza yonida qolgan yetimlar.*

*Uch yoshda o'ttizga kiradi yoshi,
Peshonada ajin, oqarar boshi,
Shodlikni aks etmas, ko'zda quyoshi,
Darvoza yonida qolgan yetimlar.*

*Jim yotarlar ular shiftga tikib ko'z,
Imkoning bo'lsa gar yordamga qo'l cho'z.
O'zi bilan o'zi, demaydi bir so'z,
Darvoza yonida qolgan yetimlar.*

O'LDI

*Ko'zlar xira bo'ldi, vujudim tugun,
Yer-u zamin shayton makoni bugun,
Mehr qasri huvullab qolgani uchun,
O'lim kelmasidan zamoni o'ldi.*

*G'unchalar ochilmay bargida so'ldi,
Abortni eshitib, shum ajal kuldi,
Tug'ilmay, go'dakning paymoni to'ldi,
O'lim kelmasidan zamoni o'ldi.*

*Qiyomat shu asli, bir jinsli nikoh,
Yalong'ochlar yo'lni to'ldirdi nogoh,
Ollohnun unutib bo'lmadik ogoh,
Er yigit degan nom erlarda o'ldi.*

*Poraxo'r o'zidan yasadi daho,
O'zidan bexabar, berarmish ma'no,
Va'z o'qib, savodsiz mullalar goho,*

Gapi amal bo'lmay cho'llarda o'ldi.

*Tarixga aylandi hur pari qoshlar,
Qalbni kuydirmaydi soxta ko'z yoshlar,
Qumli sahrolarda uzildi boshlar,
Yigitlar ul qonli ko'llarda o'ldi.*

*Barchamizni kutar olisda diydor,
Mahshar kuni deya bo'laylik bedor,
Sanjar o'zingga boq, holating abgor,
Xaridor yo'q she'rni tugatgin, bo'ldi.*

OSHIQLIK

*Oshiqlik ne o'zi angolmadim hech,
Sevgan qalblarimiz, ko'rarmi zavol?
Negaligin sira bilolmadim hech,
Telba sahrolarga oshiqdir shamol.*

*Quyosh ham oshiqdir baland
tog'larga,
Toshlarni poyidan shamollar o'pti.
Bahor shaydo bo'lar yashil bog'larga,
U sevgi oldida sevgim ne bo'pti.*

*Silab o'tar sekin, shilqim shamollar,
Yaproqlarin qiyy'os gullagan gulni.
Ko'rib mungli yig'lar sohibjamollar,
Kuldonda chekilgan bir uyum kulni.*

*Daraxtlar qaltirab to'kkanda xazon,
Shoirlar kuz deya, she'rlar bitarlar.
Nega ishq degani bunchalar sarson
Har lahza ayriliq olib ketarlar.*

*Bahorni zor kutar kurtak bechora,
Dengizlar qaramas sahro holiga.
Bunga tabiat ham topmas bir chora
Odam vijdongamas qarar moliga.*

*Kimdir boyligidan chin sevgi kutar,
O'z sevgisin deya, kechadi jondan.
Faqirni nonini changallab yutar,
Gaplar otar senga yasab tikondan.*

*Bu dil endi soxta oshiqlik demas,
Barcha mol davlati o'tkinchi, bekor.
Haromxo'r, poraxo'r, boylikka emas
Oshiqlik Ollohga bo'lmog'i darkor.*

BUGUN

*Dilbarning otashin ko'ziga boqib,
Yuragimda ishqdan mash'ala yoqib,
Tuyg'ular eshigin ohista qoqib,
Samolarda xayol surdim men bugun.*

*Tanimni kuydirdi g'o'zal nigohi,
Yomg'irlar yashirar ko'zda panohi,
Labi gul g'unchadek, yo'qdir gunohi,
Qalbg'a ishq saroyin qurdim men
bugun.*

*Uning sochlarini o'rib tarashgan,
Nazokat bobida xudo qarashgan,
Soddalik o'ziga biram yarashgan,
Samolarda parvoz qildim men bugun.*

*Domiga tortmoq istar o'hu ko'zlari,
Asalga chayilgan, boldir so'zlari,*

ULG'AYISH AZOBI =====

*Yurakka bosilar bosgan izlari,
Shirin-shirin orzu surdim men bugun.*

*Davosi yo'q ishq berar bemoriga,
Sevdim endi chidayman ozoriga,
Sevib o'zim otdim ishq bozoriga,
Oydek jamolini ko'rdim men bugun.*

ARMONIM

*Shaxzodang yoningda malika o'zing,
Bir chetda turaman senga baxt tilab.
Sevinchdan yoshlanar beg'ubor ko'zing,
Olib ketar yangalar soching silab.*

*Gullagaysan gulim o'zga bog'larda,
O'z baxting saroyin qurasan bugun.
Kezaman iforing izlab tog'larda
Axt-u paymonimiz eslamog uchun.*

*Ko'zlari jayronim jafokash gulim,
Tunlaringni yoritsin samodagi oy.
Tan olmay haqiqat o'rtaydi dilim,
Senga qaratilgan boylik degan yoy.*

*Uxlamasdan kutgan diydoring armon,
Ismingni so'roqlab bo'lar dil xazon.
Har qadam ayriliq fursat poyladi,*

ULG'AYISH AZOBI =====

Sotdilar nodonlar sevgimiz arzon.

QARSHI CHIQAMAN

*O'z tunlarim halovat izlar dargoh,
Kunduzi falakdan omad kutaman.
Ey dilim, tinglabon bo'lg'in sen ogoh,
Bugun o'z qalbimga qarshi chiqaman.*

*Dardimga qarama ey yor-u jonon,
Jazoimni bersin vazirmi, xoqon.
Tutmoqlik istamay barchadan pinhon,
Bugun o'z dardimga qarshi chiqaman.*

*Yetar tinglaganim soxta so'zlarni,
Kamon yo'q poylashga jodu ko'zlarni,
Xaridori bo'lmay ishva, nozlarni,
Bugun o'z nafsimga qarshi chiqaman.*

*Qalam qosh dilimni yoqdi ayamay,
Og'ir kunda do'st ham goldi yaramay,
Suluvlar chorlasa bir bor qaramay,*

Bugun o'z ishqimga qarshi chiqaman.

Sog'inchdan o'zimga yasadim qafas,

Chorlaydi entikib qalbdagi bir sas.

Bo'g'zidan olaman olma deb nafas,

Bugun o'z sevgimga qarshi chiqaman.

BILAMAN

*Bilaman mensiz ham baxtli bo'lasan,
Sevinchga to'libon gullaysan gulim.
Shodliging guvohi bo'lgan kechada,
Ishqning og'ushida mastman sevgilim.*

*Bilaman mensiz ham baxtli bo'lasan,
Zulmatga do'nadi mening hayotim.
Qo'l ushlab birga yurgan ko'chada,
Tugab borar mening abadiyatim.*

*Bilaman mensiz ham baxtli bo'lasan,
Endi kimdan so'ray, Dardimga shifo?
Jovdirayman qalam, qog'oz oldida,
Tong yorishar yorqin, musaffo.*

*Bilaman mensiz ham baxtli bo'lasan,
Quyoshga boqaman nurga nur sochib.
Sog'inchimni ekib uying poyiga,*

Ketmoqlik istayman o'zimdan qochib.

*Bilaman mensiz ham baxtli bo'lasan,
Tush emas o'ngimda quladi taxtim.
Ey ko'zlari jayron, yuzlari hayron,
Ey orzularga aylangan baxtim.*

*Bilaman mensiz ham baxtli bo'lasan,
Boqma hayron, qonli ko'z yoshga.
Nima ham kelardi shoir qo'lidan,
Sevgiga omadlar tilashdan boshqa.*

KAM SEVDIMMI

*Qaramayin bir bora ohu zorimga,
Ayamay qaychi urdi qo'lda torimga,
Qayg'urmay to'lib toshgan dil ozorimga,
Dilga aylab ketdi ul yor ko'p jafoni.*

Bisyor ekan ul ishqida qon yutganlar,

===== Sanjar ISOMIY

*Bemor ekan sevib o'zin unutganlar,
Xushyor ekan o'zni aldab ovutganlar,
O'zgalardan kam sevdimmi bevafoni.*

*Dunyolardan kechishga ham edim rozi,
Endi telba bozorida bo'ldim qozi,
Ishq dardini kuylaguvchi bo'ldim sozi,
Qaylardan men izlay endi chin vafoni.*

*Baxtlilar shahriga ham bo'ldim begona,
Nega bo'lding dedilar ishqda devona,
Endi qog'oz qalamim qo'lda yagona,
Chorlagayman dard atalmish ajdahoni.*

*To'g'ri, misli darveshman bu olam uchun,
Inson yaqin yo'lamas oh nolam uchun,
Qo'limda yetim qolgan bu qalam uchun,
Yashagayman simirib achchiq havoni.*

*Orzular kuldir bugun, vasli sarobdir,
Sevgan qalbimiz qasri nega xarobdir,*

ULG'AYISH AZOBI =====

*Ichganim sharbat emas endi sharobdir,
May birla ham axtardim men chin davoni.*

*Sochlariga osing endi qilmay shavqat,
Shoirni bu xonishiga qilmay toqat,
Qalbingizda qolsin doim she'rim faqat,
Ayamangiz mendek dardi bedavoni.*

TAFTISH

*Chiqolmay dunyolarni bozoridan,
Nafsim qurg'ur bo'rtib chiqdi oradan.
Yurak mangu xasta dil ozoridan,
Ajrata olmadim oqni qoradan.*

*Qalb sira qonmadi shodlikni yutib,
Temirdayin jismim goldi-ku zanglab.
Cho'g'dek vujudimni hijron sovutib,
Sirot ko'prigini oldim men anglab.*

*Hademay yoshimda o'ttiz urar bong,
Javobsiz qolmagay nafsni har ishi.
Mahshar kuni yaqin bo'ladi har tong,
Eslatadi esnab quyosh chiqishi.*

*O'zinga boqibon angladim shuni,
Gunohim yuvgani yo'q malham, dori.
Jonimni axtarib keladi bir kun,*

Azroil atalmish jon xaridori.

*Jimlik aro qanot yozdi sukunat,
Yaralangan qalbim tuzga bosaman.
Olloh o'zing qo'lla bergin matonat,
Kibrimni mehr nomli dorga osaman.*

SINGILGINAM

*Sochlarini to'zitdingmi daydi shamol,
Ko'rgunimcha qurib ketsin bu kunginam.
Simyog'ochga ilindimi shirin xayol,
Tushlarimda faryod urgan singilginam.*

*Devoriga zulmat cho'mgan mangu xona,
Xayollarim boshqarolmam endi ona,
Dard atalmish qayg'ularni ichdi yona,
Tushlarimda faryod urgan singilginam.*

*Qani endi yoshligimga qaytsam shu on,
Har qadamda zirapchaga to'lar tovon.
Qismatini yelkalab jim boqar hayron,
Tushlarimda faryod urgan singilginam.*

*Otsam edi olovlarga men o'zimni,
Dengizlarga cho'ktirsaydim qon ko'zimni.
Tamaki-la bo'g'izlaymi o'z-o'zimni,*

Tushlarimda faryod urgan singilginam.

*Aka bo'lib ne gildim men, qalbi vayron,
Yupatishga ilinjim yo'q, tugun zabon.
Maskanimdir endi g'aflat, cho'l-biyobon,
Tushlarimda faryod urgan singilginam.*

KETAMAN

*Vujudim mutlaqo aylandi toshga,
Qalbgaga olov yoqdi suluvar mudom.
Jilvalar quyildi sho'rlik bu boshga,
Xasta sevgim o'ldi topmayin orom.*

*Yolvora jon berdi, sevgim va yoshim,
Xotirjam tark etar dildan halovat.
Chiqmas bo'lib botdi, qalbgaga
quyoshim,
Bosh egib, uzr so'rar undan talofat.*

*Chiqib keta olmas dilim zulmatdan,
Chorlaydi tortqilab og'ushiga tun.
Darak berar bo'ldi o'tli zahmatdan,
Bo'g'zimga tiqilgan achitqi tutun.*

*Dengizga cho'kaman nola'mni yutib,
Ko'kda uchar bo'ldi qanotsiz jismim.*

*Sur'atga boqaman o'zni unutib,
Sanjar emas, darvesh edi-ku ismim.*

*Unutdim dunyoni ishq mast qilganda,
Uzlatga otdilar o'tgan har onim.
Sevgimni vasli deb ko'ksim tilganda,
Qog'ozda siyohmas yozilar qonim.*

*Ketaman, ming tilka yuragim ushlab,
Yo'qlikka talpingan oqqush misoli.
Yer ostida vaysaqi tilimni tishlab,
Robbim-la qolaman uzlatda holi.*

*Asranglar mening ul bag'ri toshimni,
Otash quyosh tafti ruhimni so'rar.
Yupatinglar mensiz qalam qoshimni,
Yig'lab turib oxir taqdirga ko'nar.*

*Bo'g'zimgacha yetti qilgan gunohim,
Sevgimni o'ldirdim halovat istab.*

===== Sanjar ISOMIY

*Soxta bo'ldi ko'zyosh, dildagi ohim,
Ajal ham yonimda turadi qistab.*

*Holimga tosh erib, yig'laydi falak,
Ezg'ilar tanamni qismat qoshida.
Zorimga qaramas ko'kda kamalak,
Yer ko'tarmas endi meni boshida.*

YOMG'IR

*Yonganda xotiram o'tlar taftidan,
Yomg'irlarni ostida qolgim keladi.
Shunda hovurimdan tushgum aftidan,
Samodagi bulutni sog'gim keladi.*

*To'ldirib ham yubordi falakni chiroq,
Bulutlarning gamchisi savalar yerni.
Ohh!!! ustimdan kuladi momoqalldiroq,
Mushukka aylantirib bahaybat sherni.*

*Diydoringni olislatmay yog'gin yomg'ir,
Olovli yo'llaringni mendan tut uzoq.
Shoiringni vasliga bir qongin yomg'ir,
Dardimni xonishidan ketma hech yiroq.*

*Yodingdami? Yomg'irjon fasling edi kuz,
Qayg'ular bilmas edim zarra, mutlaqo.
Xiyonatni yetaklab kelganda ul qiz,*

===== Sanjar ISOMIY

Qalb talanib qolgandi, qolmay hech vaqo.

*Senga havasim ketib, mungli boqaman,
Kezarmishsan yetaklab telba shamolni.
Endi ishq tomirida tinmay oqaman,
Uchratmayin uningdek sohibjamolni.*

*Sendek boqolmayman hech, afsus u
tomon,
Zanjirbandman kulbanga toabad mangu.
Tilaklarim eltib qo'y, yursin sog' - omon,
Tilaklarim shudir: ko'rmasin qayg'u.*

*Yonimda -ku kitoblar yotibdi qat-qat,
Ular menga malham - kamarbastadir.
Ey Ollohim, bandangni tushungin faqat,
Isomiy shoir emas, dilxastadir.*

MUNOFIQ KISHILAR

*Kim kelib, kim ketgan ey azim dunyo,
So'zlarimni tinglab meni etgin afv.
To'lib toshdi bugun bag'ringda ig'vo,
Kim shayton yo'lida, kimdir betaraf.*

*Shunchaki yozishga undar haqiqat,
Ayb sanamang bundaylar yo'q deb
orada.
She'rim munofiqlarga taallugli faqat,
Taftish qilsin o'zini bu borada.*

*O'zdan boshqasini ko'rolmagan ko'z,
O'zida yo'q mehrin qanday yo'latsin.
Yogasidan nariga o'tolmasa so'z,
Menga amalsiz gapni qanday o'rgatsin.*

*Tepib o'tsa yo'lda yetim-yesirni,
Yana qaddini kersa misoli bir g'oz.*

===== Sanjar ISOMIY

*Toshbag'ir mulloga aytay bir sirni,
Undan aziz menga sodda benamoz.*

*Munofiqlar kekkayar Qur'onni o'qib,
Jannatning kaliti qo'lida go'yo.
O'zini oqlashga bahona to'qib,
O'zini sevishga qo'yma Xudoyo.*

*Minnatli nomozi qabul bo'larmi,
Ko'z yoshini to'kib murg'ak go'dakni.
Bog'ida gullari xushbo'y bo'larmi,
Chopib tashlasa gar ildiz, o'zakni.*

AYLADI

*Ul parivash dilbari,
Bag'rimni qon ayladi,
Davo istab yosh, qari,
O'zni giryon ayladi.*

*Qalb to'ymas qalam qoshga,
Qo'l yetmas ul quyoshga,
Ko'zim to'ldirib yoshga,
Holim sarson ayladi.*

*Nayrang qilib, noz qilib,
Qaxratonni yoz qilib,
Aytar so'zim oz qilib,
Rostni yolg'on ayladi.*

*Gul gullagan bog'larni,
Baland bo'yli tog'larni,
Bulbul sayrar bog'larni,
Cho'l biyobon ayladi.*

*Ori baland bo'stonni,
Aytilmagan dostonni,
Goh faqir, goh sultonni,
Gulga bog'bon ayladi.*

Yetmas qo'l, jasoratim

*Kamon kabi qomatim,
Yetmas hech matonatim,
U zimiston ayladi.*

*Telbaligim unutib,
Vujudimni sovutib,
Tinmayin alam yutib,
Bog'im payhon ayladi.*

*Dilga aylab jafoni,
Tilim zabon ayladi.
Topolmayman davoni,
Qalbim vayron ayladi.*

*Judolikka yuz burib,
Ishqim doston ayladi.
Ustimdan kula turib,
Bog'in bo'ston ayladi.*

ICHSAMMIKAN

*Bir zum dunyolarni unutib qo'yib,
Barini telbalik, mastlikka yo'yib,
Sevgi deganining tovonin so'yib,
Qonli daryoda o'zim kechsammikan,
Bugun qalbi tosh uchun ichsammikan.*

*Hijron cho'lg'ar tanamni, yoki rohat,
Sevgi dilga aylar bitmas jarohat,
O'zgaga yor yorga bitsaydim bir xat,
Shodlik niqobin endi yechsammikan,
Buyuk armonim uchun ichsammikan.*

*Insonga yem bo'lgan hayvonlar uchun,
Sherga o'lja ohu, jayronlar uchun,
Yetim molin talar nodonlar uchun,
Bo'rining ko'z yoshini ichsammikan,
Bugun bag'ri qonlar uchun
ichsammikan.*

*Fursat yetmay golsa to'kkani ko'zyosh,
Yaralangan qalbni tark etar bardosh,
Tanamni qizdirmas falakda quyosh,
O'tli xotiralardan qochsammikan,
Bugun vasli armon uchun
ichsammikan.*

NARGIZ

*Dunyoning shodligi o'tkinchi menga
Ko'zlaringda ko'rsam alamli yoshing.
Yuragim urishdan to'xtaydi balki
Bag'rim ko'zlamasa, o'smali qoshing.*

*Gumrohlarmi, bugun ko'zing
yoshlatgan,
Bahoringmi poylab qalbg'a tosh otgan,
Armoningmi seni yoningda yotgan,
Bugun shu tufayli egikmi boshing.*

*Ey kipriklari hech nam ko'rmagan qiz,
Qayg'ularni sira bilmagan Nargiz,
Ishq bozorlarini kezdingmi yolg'iz,
O'chdimi olovi o'tli qaroshing.*

*Mensiz samolarda uchgan kim edi,
Suyib o'zgalarni quchgan kim edi,*

===== Sanjar ISOMIY

*Yoningga chorlabon sho'x yangalarni,
Yolg'onmidi kulib soching taroshing.*

*Ketganding bir zamon sevgimdan
tonib,
Qolaverdim oh urib, alamdan yonib,
Bildim botar ekan hijronga qonib,
Nur sochmas ekanda dilda quyoshing.*

TUSHLARIMGA KIR

*Yonsin endi qallda eski chirog'im,
Qolmasin alamdanda yorilganda sir.
Dilga po'lat urib, o'zdan yirog'im,
O'tinaman, bir bor tushlarimga kir.*

*Bevafoyim debon atadim bilmay,
Avf etgin telbaga zardalar qilmay,
Tanamni ezg'ilab, bag'rimni tilmay,
Vujudim sog'inganda, tushlarimga kir.*

*Bedor o'tgan tunlarim nihoya topsin,
Visol oni hijronning ildizin chopsin,
Yuragim armonlarga eshigin yopsin,
Bog'ni bo'ston aylab, tushlarimga kir.*

*Dardim bisyor, bedavoga aylama,
Toqatim yo'q bevafoqa aylama,
Qalbni jabr-u jafolarga aylama,*

Iforing taratib, tushlarimga kir.

*Bilaman malikam o'zgaga yorsan,
Dilda qolib ketgan mungli ash'orsan,
Menga qish o'zgaga yoz-u bahorsan,
Tanamni isitib tushlarimga kir.*

*Shoirning qismati shu erur asli
Gohida so'nibon, gohi porlaydi.
Sevgini yo'qotib, armondir vasli,
Qo'li yetmas ishqni tushga chorlaydi*

*Bog'imda lola-yu, gullar so'lmasin,
Sog'inch mayin ichib ko'nglim to'lmasin,
Ishq dardida kuylab yigit o'lmasin,
So'ngi najot bo'lib tushlarimga kir.*

*Ishq bozorlariga o'zim sotguncha,
G'arbga quyosh bo'lib botguncha,
Qismatimga rozi bo'lib buguncha*

ULG'AYISH AZOBI =====

Yuzingni ko'rayin tushlarimga kir.

SOG'INIB TUR DILDORIM

*Dard yukingni erkalab,
Shirin bo'lar ozorim.
Xayolingda erkalab,
Sog'inib tur dildorim.*

*Yiroqlarda chalib nay,
Qalbim ezma nigorim.
Meni yoshlik chog'imda,
Sog'inib tur dildorim.*

*Kuy chalishga urinsam,
Bo'zlab yuborar torim.
Suratimni ko'rganda,
Sog'inib tur dildorim.*

*Yuzim kulib tursa ham,
Qayg'udir endi yorim.
Olislardan bo'lsa ham*

Sog'inib tur dildorim.

*Nomingga she'rlar bitgum,
Quvonchlarim, ozorim.
Men o'zimni unutgum
Sog'inib tur dildorim.*

KECHIRGIN OROL

*Bag'ring aylanibdi sahro, cho'llarga,
Mendan ranjidingmi, ayt menga
orol.*

*Ayblarimni ko'mib mayda ko'llarga,
Yoninga boryapman tiz cho'kib orol.*

*Savlati bor endi, so'yibmiz
bilmay,*

*Amu tomiringni kesibmiz darhol.
Zarafshon suvini ko'zlarga surmay,
Yoninga boryapman tiz cho'kib orol.*

*Bilaman biz senga dushman
bo'libmiz,*

*Alamda yorilding, suving esa bol.
Qoningni ko'klarga sochib bo'libmiz,
Yoninga boryapman tiz cho'kib orol.*

*Aylanibsan bugun kema qabriga,
Aybim yuvish uchun qadayman
nihol.*

*Kechir nafsimizni qolding jabriga,
Yoninga boryapman tiz cho'kib orol.*

*Quyosh senga boqib aksin ko'rardi,
Afsus qo'limizda bo'lding sen uvol.
Qushlar uchib kelib, holing so'rardi,
Yoninga boryapman ularsiz orol.*

BULUNG'URLIK ODAMLAR

*Sotmas nomus shonini,
Topar halol nonini,
Pok tutar iymonini,
Haqqa berar jonini,
O'ylab bosar qadamlar,
Bulung'urlik odamlar.*

*O'zdan baland g'urur, or,
Cho'lni qilar chamanzor,
Bog'lari gul, lolazor,
Hech kimga bermas ozor,
To'qir goho gilamlar,
Bulung'urlik odamlar.*

*Qorani farqlar oqdan,
Yelib tolmas oyoqdan,
Pilla boqar yaproqdan,
Zar undirar tuproqdan,*

*Qizlari oy, sanamlar,
Bulung'urlik odamlar.*

*Sal gapga xursand bo'lur,
Chehrasidan yog'ar nur,
Borsangiz qilar, yur-yur,
Mehmon hurmatin qilur,
Dilida yo'q alamlar,
Bulung'urlik odamlar.*

*Boqar kulib, jilmayib,
Mehmon kutar qo'y so'yib,
Bog'iga boshni qo'yib-
Mevalar yeysiz to'yib,
Qo'lda dutor, qalamlar,
Bulung'urlik odamlar.*

**QISHLOG'IMIZGA QAYTAMIZ
DO'STIM**

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Ko'ramiz yillarning bosgan izini.
O'rnini ne bilan almashish mumkin
Gullagan jiydaning xushbo'y isini.*

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Borsak maysazorlar salom beradi.
Bizni ulg'aytirgan o'sha chang yo'llar,
Bolam qaytdi debon qaddin keradi.*

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Izimiz o'chgandir bedapoyada.
Yonimizga chorlab do'st-u yorlarni,
Davralar quramiz qalin soyada.*

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Jonga tegdi bu yerda, g'amgin o'ylari.*

*Yoshligimizda ko'z ostingdagi qiz,
Yor bo'lishga yetib qoldi bo'ylari.*

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Juda sog'indim -da kulcha, shirmoyni.
Kechalari tomda kuzatib sokin,
Kulishin ko'ramiz samoda oyni.*

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Lolaga burkangan yashil bog'larga.
Oldimizga solib uyur, chorvani
She'r aytib boqamiz adir, tog'larga.*

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Qo'yg'in, tugamaydi dunyoning ishi.
Onamiz bag'riga o'zni otamiz,
Onalar bag'ridan ketsin tashvishi.*

*Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim,
Ko'ramiz yoshlikning bosgan izini.
O'zga o'lkalardan topishing mushkul,
Bahorda yopilgan nonning isini.*

Yur, qishlog'imizga qaytamiz do'stim.

TOPMADIM

*Kimlardir beparvo kimdir jonsarak,
Qilmishimdan qotib kulganda falak,
Menga xandon otib uchdi kapalak,
Tanni tuproqqa olib ketganda malak,
Yonginamga do'st-u yorlar topdim-u,
Lekin she'rlarimdek yo'ldosh topmadim.*

*Qalb qurg'ur otashlarni tinmay chog'lab,
Vafo bilmas parilarga ko'ngil bog'lab,
Armonlarni ko'rib xasta dilim dog'lab,
Alam aro sarxush, yurak o'ksib yig'lab,
Javobsiz savollarga javob topdim-u
Lek qalbing kabi bag'ritosh topmadim.*

*Ko'rdim, yer yuzi uzra o'zim majruh,
Tomoqqa tiqilgan telba so'zim majruh,
Shodliklarga to'ymagan ko'zim majruh,
O'zimman kafan ichra bogib turgan ruh,*

===== Sanjar ISOMIY

*Olam kezib qancha oshiq topdim -u
Lek o'zinga dardi tengdosh topmadim.*

*Chaman ichra kezdim yolg'iz parvonam yo'q,
Dardlaringa sherik bo'lmish yagonam yo'q,
Yo'llar olis, boray desam koshonam yo'q,
Endi ruhman ter to'kishga peshonam yo'q,
Dunyo bozor, u yerlarda kon topdim -u
Lek gunohdan saqlaguvchi tom topmadim.*

*Yer qattiqdir osmonning ham oxiri yo'q,
Dard rasmini chizguvchisi, mohiri yo'q,
Zuhrolarga armon bo'lmish Tohiri yo'q,
Anglash mushkul botini bor zoxiri yo'q,
Bir o'lkada qoshi kamon topdim -u
Lek o'zimdek rangi somon topmadim.*

CHALG'IDIM

*Hargiz kutmang mendan zo'r-zo'r
she'rlarni*

*Ba'zida sirlashgim kelsa yozaman.
Tilimga ko'chmagan tavbalarimni
Robbimla dillashgim kelsa yozaman.*

*Qad urgan azaliy xoy-u havasdan
Bir ishq deb qalbimni rosa qistadim.
Muhabbat to'fonlar bisyor denggizdir
Bir bor ul dengizga cho'kmoq istadim.*

*Shu sabab iforin yo'qotgan gullar
Ildizin qo'porib keldi qoshimga.
Nishlarin jilmayib urgan bu qo'llar
Simfoniya chalar ko'zda yoshimga.*

*Chalg'idim, nogahon kelib kulfatlar,
Tuzoqlarin qo'ydi pusib panadan.
Ko'chani to'ldirib yurgan ulfatlar*

===== Sanjar ISOMIY

Zulukdek qon so'rdi qonsiz tanadan.

*Birov tig' urganı poyladi fursat
Barchaga birdayin yoqib bo'lmadi.
Yo'limda aslini saqlab qololgan
itlar katagidan chiqib hurmadi.*

*Bozorlar aylanib, kezdım darbadar
Kimdir mol dunyoga bo'ldi haridor.
Balki xirs ho'plagan choyiga qo'shib
yuzda ham o'ttizga kirmaganlar bor.*

*Yana nelar deyın ey qalb tushmagur
Shiddatli olamni to'xtatma bir zum.
Oqqan oqaverar qo'llarin siltab
Qani ol do'stginam may birla zaqum.*

HISSIYOT



*Termulding parishon holimga, bugun
nelarni ilg'ading ko'zinga boqib?
Bir laxza sukunat ikkimiz uchun
umrini baxsh etdi tegramdan oqib.*

*Bunchalar yoqimli jimlik ovozi,
Ko'zlar suhbat qursa tilga ne hojat.
Allanima chalar shamollar sozi
sochlaring tarashga so'rab ijozat.*

*Tobora qadami dilga yetmoqda
ming yilki barq urgan gullarning isi.
Qalbimni batamom tormor etmoqda
hujayramga qadar sog'inish hissi.*

*Quyosh qizdiradi, jim-jit tevarak
qolajak bu holga armonlar dog'da
qonim emaverib bechora yurak
gursillab-gursillab ishlagan chog'da.*

===== Sanjar ISOMIY

*Kuyunma, uchmagan ko'ngil tolasin
qalbingga tutsam gar ishqimni yasab.
Ilk sinov chog'ida burgut bolasin
„samoni quch” deya irg'itgandek gap.*

*Joduli qarashing aqlimni bugun
ming bir bo'laklarga bo'ldi ne sabab?
Bu sirni ko'nglimga fosh etmoq uchun
ko'zlaring qariga cho'kaman abad.*

*Qoqilib, surinib manzilga yetti
hech bir nohaqlikka o'ksimas dilim.
Yuragim simobga evrilib ketti,
Zaharga dars berar chopilgan tilim.*

*Sho'xlikning ildizi kesildimi yo?
Shodlikka burkangan onimni sezmas.
Beg'amlik zanjirin uzguncha hayol,
Mattohning nayrangi qalbimni ezmas.*

*Alvido ey mening bevafo sevgim?
Beg'ubor yoshligu yillar alvido.
Bepoyon bo'shliqqa sho'ng'igunimcha?
To'lg'og'ini kutgan eng so'nggi nido.*

*Oz qoldi zirxlangan qafasni buzib,
Qalbi muz kimsaning ko'ksin o'yaman.
Koinot zanjirin qaytadan tuzib,
Quyoshni yaqinroq surib qo'yaman.*

*Balki erib ketar shunda nogahon
Kimsaning tosh qotgan mitti yuragi
Kibr chashmasini qilganda payhon
Insonning insonga bo'lar keragi.*

*Chirkin dunyoimga yōlatma hech ham
hokisor bokira qadamlaringni.*

Dunyo zaharini kōribon baham
azobga ġarq qilgum har damlaringni.
Qotilman oġochlar qōlimda ōynar
Zirillar naramga yetti koinot.
Qush bōlgin bezovta ruhimni chaynar
Toki topolmayin chiqarib qanot.
Xizmatga shaylanar qoshlarin kerib
muzliklar hamrohim bōlar har safar.
Yiroq bōl taftingda ketmasin erib
tan ayoz ustidan quchganda zafar.
Hijronni tug'dirar son ming doyalar
vasiylikka olar soxta tabassum.
Qalbimda qulaydi ishqsiz qoyalar
aslingni unutma degandek har zum.
Tildan zahar tomar, qalbdan nolalar
chakillab qog'ozni kulga do'ndirar.
Kōngilga evrilgan shilqim lavalalar
qalbingda nish urgan gulni sōndirar.

Men ōzni topolmay telbarib yurgan
darveshman oyog'i lahadga yetgan.

*Men tog'ning qo'ynida hayollar surgan
burgutman vulqonlar kuydirib ketgan.
Mozorlarni oralagan o'zimman,
Mansabdorni poralagan o'zimman,
Sen o'zingni oppoq tutib yuraver
Men o'zlikni qoralagan O'ZIMMAN.
Chirkin dunyoimga yôlatma aslo
Cho'l ko'rmagan o'shal qadamlaringni!*

BOKIRA HAYOLLAR

*Shamollar qalqigan ko'kning pinjida
bokira yaproqlar bong urar nechun.
Oymomo tun ichra otilib chiqib
zuhroni erkalab o'y surar nechun.*

*Toptalgan hayollar ne derkan shunda,
Oyning panasida mudhish kechalar.
Tangri jazosini buyurgan kunda
benomus kimsaga to'lmas ko'chalar.*

*Tugasa bir kecha barcha soxtalik,
Dilga sho'ng'ib ketsa ingragan ovoz.
Qo'rqib qaltiragan qo'llarim emas,
Vujudim titrog'i oshkora holos.*

*Necha-necha so'lim tonglardan kechib,
Nursiz shu'la tomonga talpingan tunlar.
Bexos to'lin oyning nigobin yechib
kalima chaynashga ojiz tutunlar.
Ishqning olovida diydordan tonib
ishqsiz qaqrayotgan sahroda beun
o'z fikrati aro sarxush to'lg'onib
laylisini sassiz chorlagan majnun.*

*Qandayin soz bo'lar hijronlar oqsa
qon tomib tugagan tomirlar aro.
Kishanband ko'ngillar dor tomon boqsa,
Panjara ortidan temulsa diydor.*

Bas, yetar, charchadim, bug'ildim tundan,

*Nurni ko'rsat zulmat pardasin ko'tar.
Tangri jazoingni buyurgan kunda
shoiring eng avval dunyodan o'tar.*

EY KO'NGIL !

*Ey ko'ngil shodlikning tomirin kesgan
tig'midim, senga so'z ato etgan on?
Yoki quyoshmidim nur sochgan har yon
so'zni g'amga qorib qalb tomon esgan?*

*Ey ko'ngil bedorman yallolar surib
haq tomon bir bora yuzlanmasa dil.
Tubsiz sarxadsizlik aro in qurib
uchib chiqolmay kechdi necha yil.*

*Ey ko'ngil xazonlar oralab yurgan
Bo'g'zida qon qotgan jur'atimmisan?
O'zlikni topolmay qaqqayib turgan
g'orligimdan meros, sur'atimmisan?*

*Ey ko'ngil qalbini nafs tushovlagan
Xirsini opichlab yurganni ko'rding.
Faqirning rizqini changallab yegan
Bir jonga ming saroy qurganni ko'rding.*

*Ey ko'ngil ko'zlarim qarida turib
shamshirin qayragan g'animsan menga.
Shoir peshtoqini ko'ksiga urib
ichi bo'shab qolgan tanimsan menga.*

*Ey ko'ngil nafas ol, ayshing surmasang
shoirga shodliklar nishin suqmaydi.
O'tkinchi dunyoga yuzni burmasang
Qurshagan taningdan shoir chiqmaydi.*

YARALANGAN QALB

*Ayozida yashillik qumsab
Tush g'ajigan daraxtlar telba.*

*O'rmon uzra sukunat chaynab
Huvullaydi son mingta kulba.
Bunda jimlik jilovin bermas
O'z-o'zingga sho'ng'ishing kutar.
Ey shum hislar nishlaring emas
yo'lovchiman, meni yo'l yutar.
Tangri, buncha osmoning yaqin,
Entikkan qalb mash'alin yoqar.
Bulutlardan mo'ralab chaqin
Samo tushib tog'lardan oqar.
Tevarakka sochgancha nigoh
Asovini qamchilar hayrat.
Chayib olgach nafsini gunoh
chayqalgan hirs qafasin yarat!!!
Yarat ulkan-ulkan o'choqlar
Tanni irg'it burda-burdalab.
Faqat qolsin iymoni sog'lar
Faqat qolsin yaralangan qalb.
Mana o'zim orqalab kelgan
She'rdan bunyod tabarruk jismim.
Ko'zyoshlari Amuga do'ngan*

*Ozodlikka tashna bir qismim.
Ehtirosim qaynagan qondan
Dardga tashna bo'lganlar ichsin.
Ozod bo'lgay isyonim shunda
Kishanimni bir pari yechsin.
Daydi hislar taftida o'ynab
Bu manzilga boshla sog'inchim
ilma teshik yuragim chaynab
tuflab tashlar bunda alla kim.*

*Faqat qolsin iymoni sog'lar
Faqat qolsin yaralangan qalb.*

YO'LOVCHI

*Ilk bora asirlikdan qochib ketdik
Qidirib topolmas bu yerda bizni.
Nihoyat kimsasiz sahroga yetdik
Ey shamol berkitgin johildan izni.*

*Kuy chalib ichkari borganim sayin
Faryodlar aniqroq yangray boshladi.
Shamollar sochini siladim, mayin
Vujud sahro uzra soya tashladi.*

*Xastalar kelganmi dardi men kabi
Balki ko'ngil to'lar so'zga sovrilsam.
Qamchidan qabargan tandan ilgari
Handon otgunimcha qumga evrilsam.*

*Ojizlik bir bora qilsa tantana
Ko'ray yelkalarni keygaytgan onni.
Telbalik to'rvasin opichlab yana
Topib olgandekman g'am balqqan konni.*

*Chanqovuz chalibon o'tkazay fursat
Mohiyatin anglay mash'um qazoni.
Bir bora olisdan bo'lsa ham ko'rsat
Mashrab bobolardan qolgan asoni.*

Ushalmasin mayli xayoldagi ishq

===== Sanjar ISOMIY

*Ro'yobni qiymala zulfiqor tushlar.
Murodiga yetgay soddadil oshiq
Qafasin ko'tarib uchganda qushlar.*

*Buyuk ozodlikni bergin asirga
Qorg'oshindek erit qolmagay yovuz.
Cho'llarda necha tong ottirib birga
Darbadar kezamiz senla changovuz.*

SO'NGGI BOR...

*So'ngi bor tortildi qadimiy kamon
Nishonim bo'g'zimning chuqur joyida.
Bas dedim, ozod ruh qilganda isyon*



taqdir ishlov bergan nursiz loyida.

*Toj kiygan zulmatning kafanin yechdim
Zaminni yoritdi ko'kdagi quyosh.
She'r yozib, shoirlik sharobin ichdim
Biroq ular jonga bo'lmadi jondosh.*

*Ergashdim dardisar hayol ortidan
Tuyg'ular ming darra urgan onlari.
Ilhom tushib qolar visol otidan
Har yonga sochilsa ishq janonlari.*

*To'kilsam to'kildim hijron poyiga
Ojizlik qobirg'am ichida jo'shgay.
Umrinni oqizdim so'zning soyiga
Bu soylar yoshimga necha yosh qo'shgay?*

*Anglamsiz savolga javoblar qayda
Ulgursam axtarib toparman bir kun.
Jur'at izladim goh ilohiy maydan
Diydamni pishit ey qadimiy afsun.*

*Kuzak pinjidagi yaproqlar bejon
So'lgandek g'am qaynar buloqlarimdan.
Roziman, soxta so'z ahtargan zamon
Jimlikdan kar bo'lgan quloqlarimdan.

Songi bor tortildi qadimiy kamon.*

MUNDARIJA

<i>Devonadirman.....</i>	<i>3</i>
<i>Sevgilimga.....</i>	<i>4</i>
<i>Koronavirus.....</i>	<i>5</i>
<i>Ota-onam.....</i>	<i>6</i>
<i>Xiyonat izi.....</i>	<i>7</i>
<i>Karantindagi talaba sog'inchi.....</i>	<i>8</i>
<i>Sog'inch.....</i>	<i>9</i>
<i>Aybim nedir Ollohim.....</i>	<i>10</i>
<i>Bir paytlar.....</i>	<i>11</i>
<i>Eslab qo'y dildor.....</i>	<i>12</i>
<i>Marhum do'stim Muhammadga xotira.....</i>	<i>13</i>
<i>Chekaman firoq.....</i>	<i>15</i>

ULG'AYISH AZOBI =====

<i>Davrim keladi.....</i>	<i>16</i>
<i>Egmagin boshim.....</i>	<i>17</i>
<i>Guruhimiz qizlari.....</i>	<i>18</i>
<i>Keksalik gashtini sursin... ..</i>	<i>19</i>
<i>Charchadim zahar tillardan.....</i>	<i>20</i>
<i>Messi.....</i>	<i>21</i>
<i>Sensiz.....</i>	<i>22</i>
<i>Olloh bizni kechirgin.....</i>	<i>23</i>
<i>Qalb ko'zgusi.....</i>	<i>24</i>
<i>Sevgimga yetolmadim.....</i>	<i>26</i>
<i>Ulg'ayibman.....</i>	<i>27</i>
<i>Buyuk o'zbek elining daholarini.....</i>	<i>29</i>
<i>Chapak chalib yig'ladim.....</i>	<i>31</i>
<i>Do'st haqida.....</i>	<i>33</i>
<i>Xotiralarim... ..</i>	<i>34</i>
<i>Umr qisqa.....</i>	<i>36</i>
<i>Tog'larni oshib.....</i>	<i>38</i>
<i>Borim eding.....</i>	<i>39</i>
<i>So'ra.....</i>	<i>40</i>
<i>Bevafo.....</i>	<i>41</i>
<i>O'z-o'zim bilan suhbat.....</i>	<i>42</i>
<i>Oymomo.....</i>	<i>43</i>
<i>Rozi bo'ling.....</i>	<i>44</i>

===== Sanjar ISOMIY

<i>Bevafoqa dil so'zim.....</i>	<i>45</i>
<i>O'ylamay bo'lmas.....</i>	<i>46</i>
<i>Ukam bilan suhbat.....</i>	<i>47</i>
<i>Tafting asli shammidi.....</i>	<i>48</i>
<i>Nafrat bilan o'ch.....</i>	<i>49</i>
<i>Onam.....</i>	<i>50</i>
<i>Tug'ilgan kuning muborak... ..</i>	<i>51</i>
<i>Ko'ngil tolam.....</i>	<i>52</i>
<i>Izohsiz.....</i>	<i>53</i>
<i>Endi begonaga eshik ochasan.....</i>	<i>54</i>
<i>Ona zamin.....</i>	<i>56</i>
<i>Pul haqida.....</i>	<i>57</i>
<i>Ketaver.....</i>	<i>58</i>
<i>Qayg'urma.....</i>	<i>59</i>
<i>Endi.....</i>	<i>60</i>
<i>Asrab qolaman.....</i>	<i>61</i>
<i>Telbaman.....</i>	<i>62</i>
<i>Xiyonat izi.....</i>	<i>64</i>
<i>Oppoq qor ko'mdi.....</i>	<i>65</i>
<i>Telbaga aylanib qolarsan o'zing.....</i>	<i>66</i>
<i>Bilib olayin.....</i>	<i>67</i>
<i>Darvoza yonida qolgan yetimlar.....</i>	<i>69</i>
<i>O'ldi.....</i>	<i>71</i>

ULG'AYISH AZOBI =====

<i>Oshiqlik.....</i>	72
<i>Bugun.....</i>	74
<i>Armonim.....</i>	75
<i>Qarshi chiqaman.....</i>	76
<i>Bilaman.....</i>	77
<i>Kam sevdimmi.....</i>	78
<i>Taftish.....</i>	80
<i>Singilginam.....</i>	81
<i>Ketaman.....</i>	82
<i>Yomg'ir.....</i>	84
<i>Munofiq kishilar.....</i>	86
<i>Ayladi.....</i>	87
<i>Ichsammikan.....</i>	89
<i>Nargiz.....</i>	90
<i>Tushlarimga kir.....</i>	91
<i>Sog'inib tur dildorim.....</i>	93
<i>Kechirgin orol.....</i>	94
<i>Bulung'urlik odamlar.....</i>	95
<i>Qishlog'imizga qaytamiz do'stim.....</i>	97
<i>Topmadim.....</i>	99
<i>Chalg'idim.....</i>	100
<i>Hissiyot.....</i>	101
<i>"Qoqilib, surinib..."</i>	102

===== Sanjar ISOMIY

<i>“Chirkin dunyoimga...”</i>	<i>103</i>
<i>Bokira hayollar.....</i>	<i>104</i>
<i>Ey ko'ngil!.....</i>	<i>105</i>
<i>Yaralangan qalb.....</i>	<i>106</i>
<i>Yo'lovchi.....</i>	<i>107</i>
<i>So'nggi bor... ..</i>	<i>109</i>

Adabiy-badiiy nashr

Sanjar ISOMIY

ULGʻAYISH AZOBI

Sheʼrlar

Samarqand: Fan bulogʻi – 2021. 104-bet.

Muharrir: H.Aslanova

Tex.muharrir va sahifalovchi: U.Islamov

*Bosishga ruxsat etildi 06.05.2021 y. Qogʻoz
bichimi 60X84 ¹/₁₆. “Peterburg” garniturası.
Nashr bosma tabogʻi 6,5. Nashriyot hisob tabogʻi
5,0.*



===== Sanjar ISOMIY

Adadi 250 nusxa. Buyurtma .

*“Fan bulog‘i” nashriyoti MChJ
Samarqand shahri, S.Buxoriy, 1^a -11.*

ISBN 978-9943-7179-6-1

*“Sardor poligraf” OK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Samarqand viloyati, Samarqand tumani, Xishrav M.F.Y.*



*Sanjar Isomiy tahallusi bilan qalam tebratib
kelayotgan Toshbekov Sanjar Isomiddin o'g'li
1999-yil 7-yanvarda Samarqand viloyati
Bulung'ur tumani „Changal-1“ maxallasi Damariq
qishlog'ida oddiy oilada tug'ilgan. 2018-yilda
Samarqand Davlat Universiteti Kimyo fakultetiga
o'qishga qabul qilinib, hozirda mazkur
Universitetning 4- bosqich talabasi. Yosh shoirning
ilk „Ulg'ayish azobi“ nomli she'riy to'plami nashr
qilingan. Shuningdek xalqaro „Farovon yurt“
ijodkorlar ittifoqi a'zosi va „Do'rmon“ ijodkorlar
klubi a'zosi hisoblanadi.,, O'zbekiston rivojlanish
forumi doirasida o'tkazilgan „Samarqand ilhomi“
yo'nalishida 3-o'rin sovrindori.*